

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RO‘ZIYEV YARASH BOZOROVICH

**NOQARDOSH TILLARDA O‘ZLASHTIRMALIK VA UNING
FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtotreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)

Contents of the dissertation for a Doctor of Science degree (DSc)

Ro‘ziyev Yarash Bozorovich

Noqardosh tillarda o‘zlashtirmalik va uning funksional-semantik xususiyati3

Ruziev Yarash Bozorovich

The Functional and Semantic Features of Indirect Speech in Unrelated Languages35

Рузиев Яраш Бозорович

Косвенность в неродственных языках и её функционально-семантические особенности69

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of publications.....74

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RO‘ZIYEV YARASH BOZOROVICH

**NOQARDOSH TILLARDA O‘ZLASHTIRMALIK VA UNING
FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

KIRISH (fan doktori [DSc] dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunoslik fanida XX asrning birinchi yarmi oxirlarida gapning lisoniy-nutqiy xususiyati bilan bir qatorda gapdan yirik birlik, murakkab sintaktik butunlik, gaplar hamkorligi ham tadqiq etila boshlandi va keyinchalik nemis tilida *Text*, ingliz va fransuz tillarida *discourse*, *discours*, rus tilida *tekst* ya'ni *matn* deb nomlangan bunday birlik alohida tadqiqotlar uchun manba bo'lib kelmoqda.¹ Hozirgi kunda jahon tilshunosligida o'zga nutq va uning turlari tadqiqiga matn lingvistikasi va matn grammatikasi asosida yondashuvlarning rivojlanishi, o'zga nutq ya'ni ko'chirma va o'zlashtirma gapning kommunikativ maqsad kategoriyasi vositalari orasida tutgan o'rnini belgilashga muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida ko'chirma va o'zlashtirma gap turlarining yozma va og'zaki nutqdagi tadqiqi, sintaktik-semantik butunlik yoki period, matn grammatikasi, murakkab sintaktik butunlik, matnning mantiqiy-psixologik tahlili, matnning kommunikativ bo'linishi, monologik nutq matnlaridagi jumllararo aloqa borasidagi maqsadli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shu bois o'lashtirmalikning funksional-semantik xususiyati, o'zlashtirma nutq hodisasining noqardosh tillarda voqelanishi tavsifi, o'zbek va noqardosh tillarda o'zlashtirma nutqning sintaktik va morfologik turlari shuningdek ko'chirma nutqning funksional-semantik xususiyatlari gap, kontekst va mikromatn doirasida qiyosiy tahlili, ularning bevosita va bilvosita tarjima matnlarida berilish muammolari borasidagi ilg'or nazariyalarni yaratishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda kechayotgan keng qamrovli islohotlar asosida milliy tilshunoslikni jahondagi ilg'or mezonlar asosida rivojlantirish uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni yaratishi bilan birga ushbu mezonlarga ko'p asrlik milliy dunyoqarashimizdan kelib chiqib munosabat bildirish mas'uliyatini ham yuklaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida belgilangan "xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish"² vazifasining ijrosini ta'minlashda mamlakatimizda xorijiy tillarni xalqaro dasturlar asosida o'qitishni rivojlantirish masalasi dolzarb bo'lib turgan ayni davrda idrokiy-kognitiv model, pragmatik-diskursiv mexanizm va modellar yuzasidan olib borilgan keng ko'lamdagi qiyosiy tadqiqotlar muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

¹ Dressler W. Einführung in die Textlinguistik. – Tübingen. De Gruyter, 1981. –304 S.; Grosse E.U. Text und Kommunikation. Eine linguistische Einführung in die Funktionen der Texte. – Stuttgart: Franz Steiner Verlag, 2006. – 390 S.; Dijk Teun A. van. Some Aspects of Text Grammars. A Study in Theoretical Linguistics and Poetics. Mouton, 1972. – P. 376.; Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. М.: КомКнига. 2006, - С. 144

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // PF-5847-son, 8.10.2019. URL: lex.uz/docs/4545884

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850 son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: Tilshunoslikda o‘zlashtirmalik hodisasini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish, uning yozma va og‘zaki nutqda voqelanishining funksional-semantik, stilistik, pragmatik va sotsiologik jihatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari jumladan Institut für deutsche Sprache Mannheim (IDS), Humboldt Universität Berlin, Germanistisches Institut der WWU Münster, LMU München (Germaniya), Universität Wien, Universität Salzburg (Avstriya), Universität Zürich (Shveysariya), Universität Kopenhagen (Daniya), University of Oslo (Norvegiya), California State University (AQSh); University of Toronto (Kanada); Xi’an Shiyu University (XXR), Moskva davlat universiteti, Moskva davlat lingvistika universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya); shuningdek O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Buxoro davlat universiteti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Dunyo tilshunosligida o‘zlashtirmalikning funksional-semantik xususiyati, o‘zga nutq turlarini tadqiqu talqin qilish, aniqlash va tavsiflash, ko‘chirma va o‘zlashtirma nutq o‘rtasidagi sintaktik, uslubiy va pragmatik munosabatlarni tahlil qilish, ular orasidagi grammatik munosabatlarni yoritish, o‘zga nutq turlarini yozma va og‘zaki nutq diskursida boshqa tillar bilan qiyosiy tahliliga asoslangan tadqiqotlar bir qator ilmiy natijalarning yuzaga kelishi uchun zamin bo‘lgan. Hozirgi kunda o‘zlashtirmalik hodisasining sintaktik va morfologik xususiyati tadqiqi bilan Manhaym shahridagi Leybnis nomidagi Nemis tili instituti (IDS Mannheim, Deutschland); Myunster Germanistika institutida o‘zga nutqning og‘zaki nutqda voqelanishining pragmatik-stilistik xususiyati (*qarang*: prof. S.Gyuntner

tadqiqotlari, Germanistisches Institut der WWU Münster, Deutschland); o'zlashtirma gaplarda kogerentlik munosabatini tadqiq qilish (Universität Heidelberg, Deutschland), Kassel universitetida ko'chirma va o'zlashtirma gaplarda sintaktik munosabatlar (Universität Kassel, Deutschland), Vena universitetida o'zlashtirma nutqning badiiy matnda voqelanishi tahlili bilan (Universität Wien); Oslo universitetida o'zga nutqning onlayn OAV matnida tadqiq qilish (University of Oslo), Sian universitetida o'zlashtirmalik hodisasini german tillari bilan chog'ishtirma tadqiq qilishga (Xi'an Shiyou University, China) bag'ishlangan ilmiy ish va loyihalar amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida K.Boast, H.Vaynrix, M.Hallidey, E.Agrikola, H.Isenberg, V.Dressler, Y.Ries, T.A.van Deyk, F.Danesh, K.E.Heydolf, H.Brinkman kabilarning matn lingvistikasi va matn grammatikasiga doir ilmiy izlanishlari e'tirofqa loyiq³. Ko'chirma va o'zlashtirma gap turlarining yozma va og'zaki nutqdagi tadqiqi bilan S.Gyuntner, A.Laystner, A.Brunner, G.Kaufmann, S.Shmitt-Akkermann, K.Steyer, K.F.Hansen⁴ shug'ullangan.

Rus tilshunosligida esa bu borada A.I.Belich, O.I.Moskalskaya, G.Ya.Solganik, L.P.Doblaev, T.N.Gostyuk, L.M.Loseva, N.I.Serkova K.F.Romashkin, G.A.Kulakova kabi sintaktik-semantik butunlik yoki period, matn grammatikasi, murakkab sintaktik butunlik, matnning mantiqiy-psixologik tahlili, matnning kommunikativ bo'linishi, monologik nutq matnlaridagi jumllararo aloqa borasidagi maqsadli tadqiqotlarni keltirib o'tish o'rinli⁵.

³ Boast K. Der deutsche Satz. Die Satzverflechtung. Deutschunterricht, Berlin / Leipzig, Jahrg.1949, Heft 3.S. 7 – 15; Weinrich H. Sprache in Texten. Stuttgart, 1976. S. 356; Halliday M.A.K. Language Structure and Language Function. Y. Xyons (ed.). New Horizons in Linguistics. Harmondsworths, 1970; Agricola E. Vom Text zum Thema. Studia grammatica. XI. Berlin, 1976. S. 15 – 25; Isenberg H. Texttheorie und Gegenstand der Grammatik. – Berlin,1972. – S. 125; Dressler W. Einführung in die Textlinguistik. – Tübingen, 1973. – S. 289; Ries J. Was ist ein Satz? // Beitrage zur Grundlegung der Syntax, Heft 3. – Prague, 1931; Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. – Москва, 1989. – 308 с.; Danes F. Zur linguistischen Analyse der Textstruktur. Folia linguistica, 4, 1970. – Folia Linguistica IV. – S. 72–78; Heidolph K.E. Kontextbeziehungen zwischen Sätzen in einer generativen Grammatik. – «Kybernetika», 2, 1966. – S. 274 – 281; Harweg R. Pronomina und Textkonstitution. – München, 1968. – 395 s.; Birwisch M. Regeln für die Intonation deutscher Sätze. Studia grammatica VII. – Berlin, 1966. Brinkmann H. Die deutsche Sprache. Gestalt und Leistung. 2.Auflage. –Düsseldorf, 1971. – 455 s.

⁴ Günthner S. "Zwischen direkter und indirekter Rede" Zeitschrift für germanistische Linguistik, vol. 28, no. 1, 2000, pp. 1-22; Günthner S. 2002. "Formen der Stilisierung und Ästhetisierung in der Redewiedergabe." In: Kugler, Hartmut et al. (Hrsg.): Vorträge und Referate des Erlanger Germanistentags. Bielefeld: Aisthesis, 187-197; Leistner A. Syntaktische Integration in Redewiedergabe. – Kassel: University Press, 2014. 182 S.; Brunner A. Automatische Erkennung von Redewiedergabe. –Berlin/Boston: de Gruyter. 2015; Schmitt-Ackermann S. Kohärenz in Redewiedergaben. –Heidelberg: Groos Verlag. 1996; Steyer K. Reformulierungen. – Tübingen: Gunter Narr Verlag, 1997. 297 S.; Fabricius-Hansen, Cathrine (2019). Variationen des freien nicht direkte Diskurses im Deutschen. In Engelberg, Stefan; Fortmann, Christian & Rapp, Irene (Ed.), *Rede- und Gedankenwiedergabe in narrativen Strukturen – Ambiguitäten und Relevanz*. Buske [= Helmut Buske Verlag].

⁵ Белич А.И. К вопросу о распределении грамматического материала по главным грамматическим дисциплинам. Вестник МГУ, №7. – Москва, 1947. – 22 с.; Москальская О.И. Грамматика текста. Пособие по грамматике немецкого языка для институтов и факультетов иностранных языков. – Москва, «Высшая школа», 1981. – 184 с.; Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика (Сложное синтаксическое целое). – Москва, 1973. – 181 с.; Гостюк Т.Н. Коммуникативное членение сложноподчинённого предложения и его отношение к структуре текста. Канд. дисс. – Москва, 1977. – С. 171; Доблаев Л.П. Смысловая структура учебного текста и проблемы его понимания. Автореф. дисс. ...д-ра. филол. наук. – Саратов, 1972. – 41 с.; Лосева Л.М. Межфразовая связь в текстах монологической речи. Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. – Одесса,1969. – 42 с.; Серкова Н.И. Сверхфразовое единство как функционально речевая единица. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Москва, 1968. – 22 с.; Ромашкин К.Ф.Логико-грамматическая характеристика сочинительных союзов (на материале совр. нем. яз.). Канд. дисс. – Москва, 1972. – 206 с.; Кулакова Г.А. Роль главного предложения в

O‘zbek tilshunosligida matn lingvistikasi jumladan matnning kognitiv tahlili, matnning pragmatik talqini, matn mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi, matnning kommunikativ pragmatik mazmuni, matn modalligi, badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi, matnning antropotsentrik tadqiqi borasida Sh. S. Safarov, A. E. Mamatov, N. M. Mahmudov, M. X. Hakimov, I. A. Azimova, M. M. Yuldashev, S. U. Boymirzaeva, Sh. N. Turniyozova, D. S. Xudoyberganova, N. K. Turniyozovlarning, matn grammatikasi bo‘yicha M. T. To‘xsanovning, o‘zbek tilida o‘zlashtirmalikni ifodalovchi morfologik vositalarni o‘rganish borasida G‘. N. Zikrillaev va E.B. Jumaevning ishlari diqqatga sazovor⁶.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi 2021-2026 yillarga mo‘ljallangan “Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi noqardosh tillarda o‘zga nutq turlarining funksional-semantik xususiyatini aniqlash orqali ularning til va nutqdagi o‘rnini, lisoniy, milliy-madaniy, sistem-struktur, pragmatik, kognitiv hamda kommunikologik tabiatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

noqardosh tillarda o‘zga nutq turlarini badiiy asar misolida aniqlash, jumladan ko‘chirma va o‘zlashtirma nutqning lisoniy va nutqiy xususiyatini sharhlash;

noqardosh tillarda o‘zlashtirmalikni hosil qilishda ishtirok etadigan sintaktik va morfologik vositalarni aniqlab, ularning o‘xshash va farqli xususiyatlarini sharhlash;

noqardosh tillarda o‘zlashtirmalik hodisasini qiyosiy tahlil qilish orqali o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini tavsiflash, shuningdek o‘zlashtirma gaplarni tarjimada berish imkoniyatlari bo‘yicha tavsiyalar berish;

noqardosh tillar qurilishining bosh xususiyatini aniqlab, tillarda o‘zlashtirmalikni gap, kontekst va mikromatn doirasida qiyosiy tahlil qilish

структурировании гипотаксиса и включение его в текст. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Москва, 1972. – 22 с.

⁶ Сафаров Ш. Когнитив тилшunoslik. – Жиззах, «Сангзор», 2006. – 92 б.; Маматов А. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? // Ўзбек тилшunosligининг долзарб муаммолари (проф. А. Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағ‘ишланган илмий амалий анжуман материаллари). – Андижон, 2012. – Б. 212 – 220; Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқий йўлларини излаб ... // «Ўзбек тили ва адабиёти» журналі. – Тошкент, 2012, 5 -сон. – Б. 3 – 16; Нақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик таққини. Фил. фан. номз. дис... автореф. – Фарғ‘она, 2004; Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолінгвистик тадқиқи. Фил. фан. номз. дис... автореф. – Тошкент, 2008; Юлдашев М.М.Бадий матннинг лінгвопoeтик тадқиқи. Фил. фан. док. дис... автореф. – Тошкент, 2009; Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар. Фил. фан. док. дис... автореф. – Тошкент, 2010; Боймирзаева С. Матн модаллиги. – Тошкент, «Фан», 2010; Турниёзова Ш. Нозирги ўзбек тилида матн шаклланишининг деривацион хусусиятлари. Фил. фан. номз. дис... автореф. – Тошкент, 2010; Худойбергано­ва Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. –Тошкент, «Фан», 2013. – 136 б.; Турниёзов Н.Матн лінгвистикаси (маърузалар матни). – Самарқанд, СамДЧТИ, 2004; Тухсанов М. Микротекст и система средств выражения его когерентности в узбекской художественной речи. Автореф. дис... канд. фил. наук. – Бухара – Андижан, 1987. – 137 с.; Зикриллаев Г. Н. Семантико-функциональное исследование системы предикативных категорий узбекского глагола. Док. дисс. Ташкент, 1990. – С. 71 – 76; Зикриллаев Г. Н. Ўзбек тили морфологияси. – Бухоро, 1994. – Б. 23 – 24; Зикриллаев Ф. Истиқлол ва адабий тил. – Тошкент, «Фан», 2004. – Б. 103 – 113; Зикриллаев Ф. Рух ва тил. –Тошкент, «Фан», 2018. – Б. 307 – 315; Жумаев Э.Б. Ўзбек адабий тилида ўзлаштирмалик ва матн. Фил. ф. док. дис... автореф. – Бухоро, 2021.

chog'ishtirilayotgan tillardan nemis va o'zbek tillariga o'zlashtirmalikning sintaktik va morfologik turi xos ekanligi, rus tilida esa o'zlashtirmalikning faqat sintaktik turi mavjudligi bois morfologik o'zlashtirmalik lug'aviy vosita orqali berilishini asoslash;

o'zbek tilshunosligidagi matn lingvistikasi hamda matn grammatikasi talqinini, ya'ni matnning mazmuniy, kommunikativ va tuzilish jihatdan yaxlitligini sharhlash;

o'zlashtirmalikni ifodalovchi morfologik vositalarning mazmunini, aniqrog'i lisoniy xususiyatining voqelanishi hamda bu xususiyatning matn ta'sirida o'zgarishini gap va mikromatn doirasida ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida zamonaviy o'zbek adibi Abdulla Qahhorning *Sinchalak* asari va uning bevosita (ruscha) va bilvosita (nemischa) tarjimasida uchraydigan o'zlashtirmalik ifodalangan gap va mikromatnlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini noqardosh (nemis, rus va o'zbek) tillarda o'zga nutq turlarining funksional-semantik xususiyatlarining gap va mikromatnda ifodalanishining qiyosiy tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tipologik, komponent, matniy, struktur-semantik, kontseptual, kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

chog'ishtirilayotgan tillardan nemis va o'zbek tillariga o'zlashtirmalikning sintaktik va morfologik turi ustivorligi, rus tilida esa o'zlashtirmalikning faqat sintaktik turi mavjudligi bois morfologik o'zlashtirmalik lug'aviy vosita orqali namoyon bo'lishi aniqlangan;

noqardosh tillardagi o'zlashtirmalik hodisasining qiyosiy tahliliga asoslanib o'zbek adabiy tili qurilishining bosh xususiyati tejamkorlik tamoyili bilan belgilanishi, mazkur hodisaning voqelanishi funksional-potensial va pragmatik, kontekstual va kommunikativ belgilar orqali shartlanganligi isbotlangan;

qiyoslanayotgan tillarda o'zlashtirmalik shakllanishining leksik-semantik hamda mantiqiy-grammatik qatlamlari o'zaro munosabati fikr yoki propozitsiyaning kommunikativ markazi va kontseptual-kognitiv manzarasini tasvirlashi, noqardosh tillarda o'zga nutq turlarining asosini leksik-grammatik vositalar tashkil qilishi mikromatn yaxlitligi, mundarijaviy kogerentligini ta'minlashdagi ishtiroki muloqot vaziyati bilan shartlanganligi asoslangan;

chog'ishtirilayotgan tillarda mikromatnning kommunikativ yaxlitligi, tarkibiy qismlarining ketma-ket zanjirsimon aloqadan iborat ekanligi, har bir keyingi gap kommunikativ jihatdan o'zidan oldingi gapga tayanib axborotni davom ettirgan holda tema-rematik zanjir hosil qilishi va mikromatn chegarasini belgilab kelishi dalillangan;

o'zbek adabiy tilida o'zlashtirmalik *fe'l + -(i)bdi, -adi (-ydi), -gan, -gan ekan, -gan emish, -(a)r ekan, -(a)r emish, -(a)yotgan ekan, -(a)yotgan emish, -adigan (-digan) ekan, -adigan (-ydigan) emish, -moqchi ekan, -moqchi emish, -sin ekan, -sin emish* kabi morfologik vositalar; nemis tilida esa sintaktik-analitik usullar (modal *fe'llar, shart mayli shakllari* kabi) ustivorligida ifodalanishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nemis va o'zbek tillarida o'zlashtirmalik hodisasining funksional-semantik xususiyatlari aniqlanib uning amalda qo'llanilish holatlari umumlashtirilgan hamda

natijalaridan nazariy grammatika, stilistika, tarjimashunoslik, qiyosiy tipologiya fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, umumiy tilshunoslik, matn tilshunosligi va kognitiv tilshunoslik sohalariga oid maxsus seminarlarni yangi nazariy qarashlar bilan boyitishi va ularning rivoji uchun foydali bo'lgan o'ziga xos ilmiy yondashuvlarning shakllanishiga xizmat qilishi aniqlangan;

nemis va o'zbek tillarida o'zga nutq turlari birmuncha mos ekanligi, rus tilida esa o'zlashtirmalikning faqat sintaktik turi mavjudligi bir badiiy asar va uning tarjima matnlari misolida tahlil qilinib o'zlashtirmalik hodisasining funksional-semantik xususiyati qiyoslangan, ular yuzasidan bir qator nazariy va amaliy taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosalar tadqiqotchi tomonidan e'lon qilingan ilmiy ishlarda o'z ifodasini topganligi hamda chiqarilgan xulosalarning aniq asoslanganligi, muammoning aniq qo'yilishi, ishda qo'llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, badiiy manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy fikr va xulosalar qiyosiy-tipologik, komponent, matniy, struktur-semantik, kontseptual, kontekstual tahlil metodlari vositalarida aniqlab berilgani, xulosaning amaliyotga tatbiq etilganligi, natijaning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumiy, nazariy hamda kommunikativ tilshunoslik g'oyalarini nemis, o'zbek va boshqa til sathlari tadqiqiga tatbiq qilish imkoniyatida namoyon bo'lishi, shuningdek, olingan natijalar tilshunoslikning matn grammatikasi, nazariy grammatika, kognitologiya, pragmatologiya, nutqiy tuzilmalar sintaksisi va pragmatikasiga hamda o'zbek adabiy tili punktuatsiyasiga oid qator muammolar yechimini izlash borasida nazariy ahamiyatga molikligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, dastavval, uning natijalaridan oliy o'quv yurtlarida grammatika, stilistika, matn tahlili, tarjimashunoslik fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish va maxsus seminarlarni tashkil qilishda, yangi ko'rinishdagi o'quv qo'llanmalarni yaratish, turli ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishda manba vazifasini o'tashi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Noqardosh tillarda (nemis, rus va o'zbek tillari) o'zlashtirmalikning funksional-semantik xususiyatining voqelanishi tadqiqi bo'yicha olingan natijalar asosida:

noqardosh tillardagi o'zlashtirmalik hodisasining qiyosiy tahliliga asoslanib o'zbek adabiy tili qurilishining bosh xususiyati tejamkorlik ekanligi, ularning yuqori funksional potentsialga va pragmatik tabiatiga egaligi, kontekstual va kommunikativ shartlanganligiga oid nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-F1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2023-yil 29-noyabrdagi №464/1-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zlashtirmalik hodisasining funksional-semantik xususiyatlari aniqlanib uning amalda qo'llanilish holatlarini umumlashtirishda hamda natijalaridan adabiyotshunoslik, qiyosiy

adabiyotshunoslik, nazariy grammatika, stilistika, tarjimashunoslik, qiyosiy tipologiya fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, umumiy tilshunoslik, matn tilshunosligi va kognitiv tarjimashunoslik sohalarni yangi nazariy qarashlar bilan boyitishga erishildi;

chog'ishtirilayotgan tillardan nemis va o'zbek tillariga o'zlashtirmalikning sintaktik va morfologik turi ustivorligi, rus tilida esa o'zlashtirmalikning faqat sintaktik turi mavjudligi bois morfologik o'zlashtirmalik lug'aviy vosita orqali namoyon bo'lishiga oid nazariy va amaliy materiallardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2016-2018 yillarda amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 25-yanvardagi №127/30.02.01- son ma'lumotnomasi). Natijada oliy ta'lim tizimida o'qituvchi va talabalarning tilshunoslik, badiiy va lingvistik tarjimashunoslik borasidagi bilimlarini oshirish hamda ta'lim tizimi jarayonini mustahkamlash va xalqarolashtirish maqsadida yaratilgan uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishda yangi yondashuvlar sifatida tilning ruhiy-ijtimoiy hodisa ekanligi va o'zbek tilining xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilgan;

qiyoslanayotgan tillarda o'zlashtirmalik shakllanishining leksik-semantik hamda mantiqiy-grammatik qatlamlari o'zaro munosabati fikr yoki propozitsiyaning kommunikativ markazi va kontseptual-kognitiv manzarasini tasvirlashiga doir nazariy va amaliy materiallardan Samarqand davlat chet tillar institutida I-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 25-yanvardagi №128/30.02.01- son ma'lumotnomasi). Natijada o'zlashtirmalikni ifodalovchi morfologik vositalarning mazmunini, aniqrog'i lisoniy xususiyatining voqelanishi hamda bu xususiyatning matn ta'sirida o'zgarishini gap va mikromatn doirasida ochib berish kabi tadqiqot xulosalaridan mutaxassislik fanlardan axborot-kommunikatsion texnologiyalari yordamida virtual resurslar yaratishda foydalanildi;

chog'ishtirilayotgan tillarda mikromatnning kommunikativ yaxlitligi, tarkibiy qismlarining ketma-ket zanjirsimon aloqadan iborat ekanligi, har bir keyingi gap kommunikativ jihatdan o'zidan oldingi gapga tayanib axborotni davom etib temarematik zanjir hosil qilib mikromatn chegarasini belgilab kelishiga doir xulosalardan O'zbekiston teleradiokanali DM tarkibidagi "Foreign language" telekanali Dialog ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 27-yanvardagi №02-05-134-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur ilmiy-tadqiqot xulosalari teleko'rsatuvning mazmunan mukammallashuvi, ilmiy dalillarga boy bo'lishi, ko'rsatuvning ommabopligini ta'minlagan. Bunda ilmiy tadqiqot olib borish hamda o'quv qo'llanma va darslik tayyorlashda xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik qilishni samarali tashkil qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan;

noqardosh tillarda oʻzga nutq turlarining asosini leksik-grammatik vositalar tashkil qilishi mikromatn yaxlitligi, mundarijaviy kogerentligini taʼminlashdagi ishtiroki muloqot vaziyati bilan shartlanganligiga oid nazariy va amaliy natijalardan Buxoro davlat universiteti Filologiya va tillarni oʻqitish (nemis tili) taʼlim yoʻnalishining “Nazariy grammatika”, “Oʻrganilayotgan til tarixi”, “Stilistika va matn tahlili”, “Madaniyatlararo muloqotga oʻrgatish” kabi fanlari, shuningdek Lingvistika (nemis tili) taʼlim yoʻnalishidagi Zamonaviy lingvistika, Pragmalingvistika, Lingvistik tahlil metodlari fanlarini oʻqitish jarayonida, bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalarini yozishda, monografiya, oʻquv-uslubiy va oʻquv qoʻllanmalar, mustaqil taʼlim boʻyicha uslubiy koʻrsatmalarni tayyorlashda samarali foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2024-yil 4-apreldagi №02/1555-son maʼlumotnomasi). Natijada viloyatimizdagi OTM, litsey va umumiy oʻrta taʼlim maktablari uchun zamonaviy oʻquv adabiyotlarini xalqimizning milliy ruhi va ona tilimizning milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda yaratish, ularning ilmiy-nazariy qiymatini oshishiga erishildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanda jumladan 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy ilmiy-amaliy konferensiyalarda qilingan konferensiyalarda qilingan maʼruzalarda aprobatsiyadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta monografiya, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta ilmiy maqola, jumladan, 12 ta respublika miqyosidagi va 1 ta xalqaro bazalar roʻyxatiga kirgan xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, toʻrt bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyot roʻyxatidan iborat boʻlib umumiy hajmi 260 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning birinchi bobi **Ruhiy quvvat va til qurilishi** deb nomlanib besh fasldan tarkib topgan. Birinchi faslda *ruhiy quvvat bilan tilning oʻzaro munosabati* haqida fikr yuritiladi. Maʼlumki bundan ikki asr oldin Ovrupoda *til ruhiy-ijtimoiy hodisa* ekanligi haqida taʼlimot yaratilgan. VII asrda esa muqaddas arab zaminida *tilning ruhiy-ijtimoiy* xilqat ekanligi xususida ilohiy taʼlimot nozil boʻlgan. Bobning dastlabki faslida mazkur ikki taʼlimotning mazmun-mohiyati qisqacha sharhlanadi.

Mazkur taʼlimot umumiy va nazariy tilshunoslik asoschisi Vilhelm fon Humbolt (Wilhelm von Humboldt, 1767–1835) tomonidan yaratilgan. Ulugʻ olim oʻz taʼlimotini *Yava orolidagi kavi tili xususida* nomli uch jildli asari muqaddimasida bayon qilgan. Muqaddima 1830-1835 yillarda yozilgan boʻlib *Insoniyat tili qurilishining rang-barangligi va uning bashariyat ruhiy taraqqiyotiga*

*ta'siri*⁷ deb nomlangan. Ushbu ta'limot jahon tilshunosligida e'tirof etilgan bo'lib turlicha oqim, yo'nalish, maktablarning paydo bo'lishi uchun asos vazifasini bajargan va shunday bo'lib qolmoqda.

V. Humbolt tilni 1) mazmun-mohiyatiga ko'ra ruhiy faoliyat, ruhiy quvvat, 2) tuzilishiga ko'ra butunlik, yaxlitlik (tizim, sistema) va 3) vazifasiga ko'ra ijtimoiy hodisa deb atagan⁸. Ruhiy quvvat deganda atoqli olim tilni xalq ruhiy quvvatining ifoda vositasi ekanligini nazarda tutgan. Butunlik yoki tizim deganda esa tilni o'zaro uzviy bog'langan qism(unsur)larga ega yaxlitlik deb uning tuzilishi, tartiboti (strukturasi) xalqning ruhiy quvvatiga bog'liq ekanligini nazarda tutadi. Shu bilan birga xalqlarning ruhiy quvvati (tafakkur tarzi) bir xil bo'lmaydi binobarin tillarning qurilishi ham bir xil emas deb uqtiradi atoqli olim. Ta'rifning uchinchi qismidan til jamiyat a'zolariga o'zaro mulloqot qilish hamda bir-birini tushunish imkonini beradigan bebaho xilqat ekanligi anglashiladi.

Jumladan tilning paydo bo'lishiga doir fikrlar o'ta dolzarbligi bilan diqqatni o'ziga tortadi. Humboltgacha bo'lgan qarashlardan biriga ko'ra til tadrijiy (evolyutsion) taraqqiyot natijasida sekin-asta oddiydan murakkabga tamoyili asosida paydo bo'lgan. V. Humbolt bu fikrga zid shunday deydi. Tilning ibtidosini bilmaymiz ammo u qachon bo'lsa ham birdan paydo bo'lgan.

Bobning ikkinchi fasli *Dialektik materializm va tilning paydo bo'lish nazariyasi* deb nomlanadi. Dialektik materializm falsafaning asosiy masalasini ilmiy tarzda hal qilib materiyaning birlamchiligi, ongning ikkilamchiligini har tomonlama isbotlaydi. Dialektik materializm dunyodagi turli hodisalar harakatdagi materiyaning turli ko'rinishidir, dunyo materiyaning harakat qonunlariga binoan rivojlanadi; dunyoning birligi uning moddiyligidadir deb ta'lim beradi.

Tilning paydo bo'lishi masalasiga kelsak dialektik materializmda mehnat, til, fikr bir vaqtda o'zaro bog'liq holda paydo bo'ladi deb uqtiriladi.⁹ Jumladan "dialektik materializm ruhni yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xossasi, odamlar ijtimoiy-tarixiy amaliyotining natijasi deb hisoblaydi".

Shunisi e'tiborga bu fikrlar 7-asrdayoq Qur'oni karimda bayon qilingan. Jumladan Isro surasining 85-oyatida ruhning mohiyati haqida shunday ma'lumot berilgan. *Sendan ruh nima deb so'raydilar. Ruh tangrimning amri yoki ishidir, sizlarga juda oz ilm ato etilgan deb ayt.* Demak ruh yaratgan zotga xos amr, ish ekan. Insonga nihoyatda oz ilm berilganidan ruhning mazmun-mohiyatini tushunishdan ojjiz ekan. Tangri taolo ruhning mazmun-mohiyatidan nimani bildirsa inson o'shani bilib olar ekan xolos¹⁰.

Mazkur fikrlar mazmunidan ayon bo'ladiki umumiy, mushtarak bo'lgan bobotil ham uning xususiylashgan ko'rinishi bo'lmish milliy tillar ham *idealistik hodisa* ya'ni *ilohiy, ruhiy xilqatdir*. Tilning ikkala xususiyati nazarda tutilsa uning *ruhiy-ijtimoiy* hodisa yoki *idealistik-materialistik xilqat* deb talqin qilinganligi ma'lum bo'ladi.

⁷ Wilhelm von Humboldt. Gesammelte Schriften. Band VII. Erste Abteilung: Werke VII. Erste Hälfte. Berlin, B. Behr's Verlag, 1907.

⁸ Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. Москва, 1984. С. 69, 70, 72.

⁹ Содиқов А., Абдуазизов А.А., Ирискулов М.Т. Тилшуносликка кириш. Тошкент, 1981. 210-б.

¹⁰ Зикриллаев Ғ.Н. Рух ва тил. Тошкент: Фан, 2018. 33-б.

Bobning uchinchi fasli *mustamlakachilik va milliy tillarga munosabatga* bag'ishlangan.

Ma'lumki yurtimiz bir asrdan ko'proq mustamlaka bo'ldi. Avval chor hukumati so'ngra sho'ro hokimiyati tomonidan mustamlakachilik siyosati yurgizildi. Bu jarayon uzluksiz davom ettirilgani uchun mustamlaka xalqlarning adabiy tili o'zining *ijtimoiy va ruhiy-ma'naviy* vazifasini to'la bajarish imkoniyatidan mahrum bo'ldi. Oqibatda adabiy tilimiz ijtimoiy hayotning ko'pchilik sohasida qo'llana olmadi.

Sho'ro davrida nashr etilgan bir darslikda "Rus tilini faqat ziyolilar emas, ishchi kolxozchilar ham sevib o'rganmoqda", rus tili o'zbek tilining o'rnini egallab, uning ish ko'rish doirasini kamaytirayotgani yo'q, balki ikkinchi ona tili funksiyasini bajarayotir" deb yozilgan. Aslida esa ahvol tamoman boshqacha edi. Yil sayin o'zbek tilining qo'llanish doirasi ya'ni ijtimoiy vazifasi torayib bordi. Fan-texnika, davlat idoralari, tibbiyot, hisob-kitob, statistika, sport, harbiy sohada to'liq rus tili hukmron bo'lib o'zbek tilidan deyarli foydalanilmas edi.

Tadqiqotimiz mavzusi bilan bevosita bog'liq bo'lgani bois shulardan yana bittasini tilga olamiz. O'zlashtirmalik rus tilidagidek faqat sintaktik hodisa sifatida talqin qilindi. Holbuki o'zbek tilida uning o'zlashtirma xabar, o'zlashtirma so'roq, o'zlashtirma buyruq kabi turlari mavjud. Ularni ifodalash uchun xoslangan o'nlab morfologik vosita bor; *-(i)bdi*, *-gan ekan (emish)*, *-(a)r ekan (emish)*, *-sin ekan (emish)* ana shular jumlasidan. O'zga nutqning yana bir ko'rinishi bo'lgan ko'chirma gap mavzusi talqin-u tadqiqida ham ruscha qolip va andozalar asos qilib olingan. Dissertatsiyamiz uchun mavzu tanlashda jumladan ana shular inobatga olindi.

Bobning to'rtinchi fasli *noqardosh tillar qurilishining bosh xususiyatini* izohlashga bag'ishlangan bo'lib, unda to'rtta (arab, rus, nemis va o'zbek) tilda bitta fe'lning o'zagi qiyoslab ko'riladi: *qr' – chita – les – o'qi*. Arab tilida o'zak uchta undoshdan iborat bo'lib faqat grammatik emas, lug'aviy ma'no ham anglatmaydi. Unga har qaysi undoshdan keyin bitta unli qo'shilsa birdaniga lug'aviy va bir nechta grammatik ma'no namoyon bo'ladi. *O'tgan zamon, uchinchi shaxs, birlik* shular jumlasidan: *qara'a – o'qidi*. Rus tilida fe'lning o'zagi faqat lug'aviy (atash) ma'no anglatadi. Grammatik ma'no ifodalanishi uchun qo'shimcha talab etiladi: *chita-y – o'qi*. Nemis tilida o'zakdan lug'aviy ma'no anglashilib grammatik ma'no unli o'zgarishi bilan ifoda etiladi: *lies – o'qi*. O'zbek tilida esa tamoman boshqacha holga duch kelamiz. Fe'lning o'zagi (*o'qi*)dan avvalo rus tilidagidek lug'aviy ma'no ya'ni harakatning insonga xos faoliyat ekanligi anglashiladi. Bundan tashqari rus va nemis tilidagidek ega, to'ldiruvchi, hol bilan birikish imkoniyati (*valentligi*) sezilib turadi. Shu bilan birga o'zakdan o'nga yaqin grammatik ma'no anglashiladi. Shaxs (*tinglovchi*), son (*birlik*), mayl (*buyruq*), zamon (*kelasi*), bo'lishlik (*tasdiq*), hurmat (*ga betaraflik*), nisbat (*bosh shakl*), tarz, aspekt (harakatning tugallanganligi va hokazoga betaraflik) hamda his-tuyg'uga betaraflik (ifodalanishi urg'u va hokazoga bog'liq) shular jumlasidandir. Fe'lning o'zagi bundan tashqari kommunikativ vazifa ham bajaradi. Bitta o'zi fikr ifodalab tinglovchini o'zakdan anglashilgan harakatni bajarishga undaydi. Predikativlik to'liq ifodalanganidan buyruq gap bo'lib keladi: *O'qi*. Shuni ta'kidlash lozimki hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'lning o'zagi eng kichik gap bo'lib gapning boshqa barcha ko'rinishi shundan qo'shimcha va boshqa

vositalar bilan hosil bo‘ladi.¹¹ Ko‘rinadiki hozirgacha nol ko‘rsatkichli shakl deb qaralgan vosita ham lug‘aviy ham grammatik ham kommunikativ birlik vazifasini bajaradi. Shularga asoslanib biz ham o‘zbek adabiy tili qurilishining bosh xususiyatini *tejamkorlik* deb ataymiz.

Birinchi bobning beshinchi fasli *Dissertatsiyaning metodologik asosi, metod va tadqiq usullari* deb nomlangan. Tadqiqotimizning metodologik asosini belgilash maqsadida Qur‘oni karimdagi ruh va til hamda umumiy va nazariy tilshunoslik asoschisi V. Humboltning ruh va til haqidagi ta‘limotiga murojaat qilinadi. Natijada til *ruhiy-ijtimoiy xilqat* boshqacha aytganda *idealistik-materialistik dunyoqarash* deb e‘tirof etiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **Noqardosh tillarda o‘zga nutq va uning tadqiq-u talqini** deb nomlanib uch fasldan iborat. Birinchi faslda *nemis tilshunosligida ko‘chirma va o‘zlashtirma nutqning tadqiq-u talqini* haqida atroflicha mulohaza yuritiladi. Shuni ta‘kidlash joyizki, nemis tilshunosligida o‘zga nutq turli oqim, maktab va yo‘nalishlarda ham nazariy ham amaliy jihatdan har tomonlama tadqiq qilingan. Jumladan o‘zga nutq turlari faqat matn doirasida emas, balki kundalik muloqotdagi qo‘llanishi ham chuqur tahlil qilinadi. Mixail Baxtin o‘zining “Kundalik hayotda gapirayotgan odamlar” haqidagi metalingvistik tahlillaridan olgan natijasiga ko‘ra „o‘zganing nutqi, fikri va so‘zini o‘zlashtirib bayon etish, sharhlash, munosabat bildirish va b. inson nutqiy faoliyatining eng keng tarqalgan va muhim mavzularidan biridir.“ Odamlar kundalik hayotda turli vaziyatda gapiradilar va ularning muloqot mavzusi katta ahamiyatga ega. Har qadamda boshqa insonlar haqida gapiriladi, fikr bildiriladi. Aytish mumkinki kundalik hayotda eng ko‘p o‘zgaralar haqida gapiriladi, ya‘ni o‘zga fikri xabar beriladi, eslanadi, sharhlanadi, izohlanadi, yoki taxmin, ishonch, ihonchsizlik, mamnuniyat, norozilik kabi turli munosabat bildiriladi, ba‘zida o‘zga fikri haqida bahslashiladi, u ma‘qullanadi, inkor etiladi, ustidan hukm chiqariladi va b.¹²

Og‘zaki muloqotda o‘zga nutq shakllarining qo‘llanishini tadqiq etish birmuncha boshqacha ilmiy yondashuvni taqozo etadi. Kundalik og‘zaki muloqotda o‘zga nutqni ko‘chirma va o‘zlashtirma nutqqa qat‘iy ajratish ma‘lum sabablarga ko‘ra adolatdan emas. Og‘zaki nutqda an‘anaviy ko‘chirma va o‘zlashtirma gapdan tashqari bir qator gibril shakllar ham uchraydi. Ularning qo‘llanishida deytik, mayl (aniqlik va shart) va sintaktik tobelik va mustaqillik (ergash va mustaqil gap) xususiyatlari bilan birga prosodik-ohang va tildagi rangbaranglikdan sermahsul foydalanish jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi.¹³ Shuningdek o‘zga nutq turlarining matbuotda qo‘llanishi va ularda shakliy va mazmuniy yaxlitlik (Kohäsion, Kohärenz) haqida alohida tadqiqot amalga oshirilgan.¹⁴ O‘zga nutq turlarida sintaktik xususiyatlar, ya‘ni muallif va so‘zlovchi gapining o‘zaro sintaktik

¹¹ Зикриллаев Ф.Н. Рух ва тил. Тошкент: Фан, 2018. 62-6.

¹² Bachtin M. Die Ästhetik des Wortes. – Frankfurt: Suhrkamp. 1979. S. 225.

¹³ Günthner S. "Zwischen direkter und indirekter Rede" Zeitschrift für germanistische Linguistik, vol. 28, no. 1, 2000, pp. 1-22. <https://doi.org/10.1515/zfgl.2000.28.1.1>; Günthner S. "Stilisierungsverfahren in der Redewiedergabe – Die ‚Überlagerung von Stimmen‘ als Mittel der moralischen Verurteilung in Vorwurfsrekonstruktionen". Sprech- und Gesprächsstile, edited by Margret Selting and Barbara Sandig, Berlin, Boston: De Gruyter, 1997, pp. 94-122. <https://doi.org/10.1515/9783110820447.94>

¹⁴ Schmitt-Ackermann S. Kohärenz in Redewiedergaben. Heidelberg. J. Groos Verlag, 1996. – 196 S.

munosabatini¹⁵ tadqiq qilish ular haqida chuqur ma`lumot olish imkonini beradi. Nemis tilida ko`chirma gapni o`zlashtirma gapga aylantirganda, odatda bog`lovchili (dass, ob) ergash gap hosil bo`ladi. Muallif gapi esa bosh gap shaklida keladi.

Ko`chirma va o`zlashtirma nutqning asosiy farqlaridan biri shuki ko`chirma nutq orqali o`zganing fikri aynan, o`zlashtirma nutq vositasida esa qisman o`zgartirib bayon qilinadi. Ayni paytda ular o`zaro uzviy bog`langan. Chunki ayni bir voqea-hodisani ularning ikkalasi bilan ham ifodalash mumkin. Bunda ko`chirma nutq asos vazifasini o`taydi. U o`zlashtirma nutqqa aylantirilganda sintaktik, morfologik va intonatsion o`zgarishlar ro`y beradi. Eng avvalo shaxs o`zgarishi (Personenverschiebung) sodir bo`ladi. Bunda faqat so`zlovchining emas, nutq qaratilgan shaxs ya`ni suhbatdosh (tinglovchi)ning shaxsi ham o`zgarishga yuz tutadi. Chunonchi so`zlovchi (muallif) III shaxs, ko`chirma gapning egasi I shaxsni ko`rsatsa o`zlashtirma nutqning egasi III shaxsda turadi:

Er sagte: „Ich habe mich gut erholt“.

Er sagte, daß er sich gut erholt habe.

O`zlashtirmalik ayni bir qo`shma gap doirasida ikki, uch marta ishlatilishi mumkin. Bunday holda murakkab qo`shma gap hosil bo`ladi:

„Er fragte mich auch, ob ich nicht wiederkäme, um die Menschen kennenzulernen, denen ich heute geholfen hätte.“

Ich hielt ihre Hand fest und sagte, ich würde sie nicht loslassen, auf keinen „Fall“, bevor sie mir nicht „noch einmal“ erzählt habe, wie ich zur Welt gekommen sei.

Misollarning birinchisida o`zlashtirmalik (so`roq va xabar) ikkita ergash gapda, ikkinchisida uchta ergash gapda ifoda etilgan.

O`zlashtirma ergash gapda odatda konyunktivning prezental zamon shakllari ya`ni prezens, perfekt va futurum I ishlatiladi. Bosh gapdagi zamon shakli ergash gap kesimiga hech qanday ta`sir o`tkazmaydi:

Er sagt (yoki sagte, hat gesagt), daß er einen Brief an seinen Bruder schreibe (geschrieben habe yoki schreiben werde).

Nemis tilida o`zlashtirma gap quyidagi turlarga bo`linadi:

O`zlashtirma xabar: *Er sagt, daß wir um 8 Uhr kommen.*

O`zlashtirma so`roq: *Er fragt, ob wir um 8 Uhr kommen.*

Er fragt, wann wir kommen.

O`zlashtirma buyruq xabar manbaiga odatda bog`lovchisiz birikib so`z tartibi mustaqil gapdagidek bo`ladi. Bunday holda o`zlashtirma buyruq qo`shma fe`l kesim bilan ifoda etiladi. Kesimning tuslanadigan qismi *sollen* modal fe`lining prezens yoki preterit kon`yunktiv shakli orqali ifodalanadi. *Er sagte: „Komm um 5 zu mir“.* – *Er sagte, ich solle um 5 zu ihm kommen.*

O`zlashtirma iltimos (indirekte Bitte) ham qo`shma kesim vositasida ifodalanadi. Kesimning tuslanuvchi qismi *mögen* modal fe`lining prezens konyunktivi, kesimning tuslanmaydigan qismi infinitiv I shaklida keladi. *Er sagte: „Kommt, bitte, um 5 zu mir“.* – *Er sagte (bat), wir mögen um 5 zu ihm kommen.*

¹⁵ Leistner A. Syntaktische Integration in Redewiedergabe. Eine Untersuchung der direkten und nicht-direkten Redewiedergabeformen in literarischen Texten. – Kassel: Kassel university press, 2016. -182 S.

Tuzilishiga ko`ra o`zlashtirma gap ikki turga bo`linadi:

1. Sintaktik yo`l bilan hosil bo`ladigan
2. Morfologik yo`l bilan hosil bo`ladigan.

Nemis tilida birinchi tur o`zlashtirmalikda xabar manbai (Redeeinleitung) bosh gap va so`zlovchi nutqi esa ergash gap vazifasida keladi.

Er sagt: "Wir kommen um 8 Uhr." *Er sagt, daß wir um 8 Uhr kommen.*

Ikkinchi tur o`zlashtirmalik ko`chirma gapdan morfologik vositalar (grammatik shakl va morfema) yordamida hosil bo`ladi. Qiyoslanayotgan tillardan nemis va o`zbek tillarida ikkinchi tur o`zlashtirmalik bor, rus tilida es faqat birinchi tur o`zlashtirmalik mavjud.

Nemis tilida ikkinchi turni hosil qilishda konyunktiv mayli shakllari va modal fe`l+Inf./Part.II Inf. xizmat qiladi:

Nem. Er habe den Brief geschrieben/Er soll den Brief geschrieben haben. O`zb. U maktubni yozgan/yo`zgan emish.

Rus tilida bunday gap sintaktik yo`l bilan hamda leksik vositalar yordamida ifodalanadi. Ushbu gapning rus tilida berilishiga e`tibor qaratamiz: *Оказывается, он написал письмо/Говорят, что он написал письмо.*

Nemis tilida morfologik yo`l bilan hosil bo`lgan o`zlashtirma nutqning asosiy belgilariga konyunktiv mayli shakllari va modal fe`l qo`llanishi kiradi. Bunda o`zlashtirma nutq mustaqil gap shaklida keladi: *Er sei immer mit eigenem Auto zur Arbeit gefahren. Es soll den ganzen Tag geregnet haben.*

O`zgalar nutqining uchinchi turi faqat badiiy adabiyotga xos bo`lib o`ziniki bo`lmagan ko`chirma nutq (erlebte Rede, несобственно-прямая речь) deb ataladi. O`zgalar nutqining bu turi muallif matniga qo`shilib asar qahramonlari fikr va tuyg`usini ifodalaydi, ularning ichki dunyosini ochib berishga xizmat qiladi.

Bobning ikkinchi fasli *rus tilida ko`chirma va o`zlashtirma nutqning tadqiqi tavsifiga* bag`ishlangan. Rus tilida o`zlashtirmalik hodisasini tavsiflashimizdan maqsad o`zbek tili grammatikasi rus tili ta`sirida shakllangan va tabiiyki tadqiqot predmetimiz bo`lgan o`zlashtirmalik hodisasini qiyosiy tadqiq etishimizda uning sezilarli ahamiyati bor.

Rus tilida o`zga nutq uch turga ajratiladi: 1) ko`chirma nutq, (pryamaya rech) 2) o`zlashtirma nutq (kosvennaya rech) va 3) o`ziniki bo`lmagan ko`chirma nutq (nesobstvenno-pryamaya rech).

Я сказал: Я приду вовремя – Я сказал, что я приду вовремя.

Ta`kidlash kerakki, rus tilida o`zbek va nemis tillaridan farqli ravishda o`zlashtirmalik faqat sintaktik yo`l va lug`aviy vosita yordamida ifodalanadi, morfologik yo`l bilan o`zlashtirmalik hosil bo`lmaydi.

Bobning uchinchi faslida *o`zbek tilshunosligida ko`chirma va o`zlashtirma nutqning talqinu tavsifi* haqida fikr yuritiladi. O`zbek tilshunosligida ham germanistika va rus tilshunosligidagidek o`zga nutq turlarini tadqiq qilish ikki bosqichdan iborat. Birinchi bosqich bir necha o`n yil davom etadi. Bu bosqichda o`zga nutqning ikkala turi ham rus tilshunosligidan nusxa ko`chirish orqali boshqacha aytganda ruscha qolip va andozalarga asoslanib o`rganiladi. Natijada tillardan bir yoki ikkitasiga oid mushtaraklik hamda farq va tafovut mavjudligi ayon bo`ladi. Ayrim atama qo`llanishida ham tafovut bor. Germanistika va rus

tilshunosligida *nutq (Rede, речь)* atamasi ishlatiladi. O‘zbek tilshunosligida esa birinchi bosqichda bu ma’noda asosan *gap* qisman *jumla* atamasidan foydalaniladi.

Yana bir farq shuki o‘zlashtirmalikning morfologik yo‘l bilan hosil bo‘lishi boshqacha aytganda o‘zlashtirmalikning o‘zbek adabiy tili qurilishiga xos xususiyatini ifoda etuvchi o‘ndan ortiq shakl birinchi bosqichda tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qoladi.

Ma’lumki o‘zbek tilida ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gapga aylantirish jarayonida yuqori darajada shakliy (sintaktik) evrilish ro‘y beradi. Aniqroq qilib aytganda fikr ifodalovchi vosita shaklan murakkab tushuncha anglatuvchi vositaga o‘zgaradi. Natijada sintaktik tejamkorlik zuhur bo‘ladi.

Sho‘ro tuzumi davrida o‘zbek adabiy tili grammatik hodisalarini tadqiq qilishda ko‘p holda ruscha qolip va andozalar asos qilib olingan. Shu bois *o‘zlashtirmalikning ikkinchi turi* ya’ni morfologik yo‘l bilan hosil bo‘ladigan uzoq vaqt tilshunoslar e’tiboridan chetda qoldi. Negaki bu tur o‘zbek adabiy tili qurilishining o‘ziga xos xususiyati bilan uzviy bog‘langan.

Jumladan akad. A.N.Kononovning mashhur ilmiy grammatikasida¹⁶ na morfologiya na sintaksisda bu haqda biron bir ma’lumot yo‘q. Ayni vaqtda prof. A. G‘ulomov va akad. A. Hojiev tomonidan fe’lning zamon shakllari bahsi va to‘liqsiz fe’l mavzusida o‘zlashtirmalikka xos ma’no haqida ma’lumot berilgan. Chunonchi A. G‘ulomov *-gan* shakli bildirgan ish-harakatni so‘zlovchi birovdan eshitgan bo‘lishi mumkin deb misol keltiradi: *U borgan*.¹⁷ Bundan tashqari *-(i)bdi* shakli o‘tgan zamon eshitilganlik fe’li deb nomlanib uning asosiy ma’nosi so‘zlovchi ish-harakat bo‘lganligini o‘z ko‘zi bilan ko‘rmay boshqa odamdan eshitganligini ifodalashdir deb yozadi¹⁸: *boribdi – aytishlariga qaraganda, eshitishimcha u boribdi*.

Tilshunosligimizdagi yo‘nalishlaridan yana birida *shakldan mazmunga* tamoyiliga asoslaniladi-yu uning metodologiyasi boshqa yo‘nalishlardan tub farq qiladi. Tilshunos G‘. Zikrillaev tomonidan tasavvuf falsafasining bosh manbai bo‘lgan Qur’oni karimdagi ruh va til ta’limoti hamda ruhiy-ijtimoiy xilqat deb qaraladigan V. Humbolt ta’limoti metodologik asos sifatida qabul qilinadi. Binobarin til qurilishiga idealistik-materialistik dunyoqarash nuqtai nazaridan yondashiladi.¹⁹

Umumiy va nazariy tilshunoslik asoschisi V. Humbolt xalqlarning *ruhiy quvvati* (Geisteskraft) har xil bo‘lgani bois tillarning qurilishi (tuzilishi, subuti) ham bir xil bo‘lmaydi deydi. Buni aniqlashda ulug‘ olim qiyosiy-tarixiy metoddan foydalanadi. Shu munosabat bilan faylasuf F. Hegelning quyidagi fikri diqqatga sazovor. Xalq ruhiyati va ma’rifatining shu xalq tili grammatik qurilishida tajallisi (in’ikosi)ni o‘z tili bilan bir qatorda boshqa bir necha tilni biladigan, *bu tillar qurilishini o‘z tili bilan qiyoslay oladigan kishigina tuya oladi*²⁰. G‘. Zikrillaev shularni nazarda tutib o‘zbek adabiy tili qurilishining o‘ziga xos xususiyatini

¹⁶ Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. М. -Л., Изд-во АН СССР, 1960.

¹⁷ Ҳозирги замон ўзбек тили. Тошкент, “Фан”, 1957. 399-б.

¹⁸ Ўша ерда. 401-б.

¹⁹ Зикриллаев Ф.Н. Рух ва тил. Тошкент: Фан, 2018. 32-47-б.

²⁰ Ne’matov H.G. va b. Tilshunoslikning metodologik masalalari. Mauritius: Omniscriptum. 2020. 40-б.

belgilash maqsadida qiyosiy-tipologik metodga murojaat qiladi. Bunda bitta fe'l va bitta ot o'zagini arab, rus, nemis va o'zbek tillarida qiyosiy tahlil qiladi. Tahlil natijasida o'zbek tilida lisoniy birliklarning barchasiga tejamkorlik xos, arab tilida ham shu xususiyat ustuvor, nemis va rus tillarida buning aksi degan xulosaga keladi. Shunga ko'ra o'zbek adabiy tili qurilishining bosh xususiyati *tejamkorlik* deb ataydi.

Ana shunday tamoyillarga tayanib uzvli (komponent) va kontekstual tahlilni qo'llash, grammatik ma'noning belgilanganlik darajasi hamda so'z va qo'shimcha ma'nodoshligini inobatga olish G'. Zikrillaevga o'zlashtirmalikning ikkinchi turidan ayrim shaklning lisoniy-nutqiy xususiyatini birmuncha aniq belgilash imkonini beradi. Olim o'tgan asrning 70-yillaridan mazkur shakllar orqali *eshitilganlik* ma'nosi ifodalanganda *o'zlashtirma gap* hosil bo'ladi deb uqtirib keladi. Bunday gapning eng kichik ko'rinishi fe'lning o'zak, negiziga qo'shimcha qo'shish bilan hosil bo'ladi. Demak bunday gapning eng ixcham shakli bir so'zdan iboratdir.²¹

O'zbek adabiy tilida o'zlashtirmalikning ikkinchi turi ya'ni morfologik yo'l bilan hosil bo'ladigan o'zlashtirmalik mazmunan uch xil ko'rinishga ega: 1) o'zlashtirma buyruq, 2) o'zlashtirma xabar (istak va hokazo), 3) o'zlashtirma so'roq. Mazkur ma'nolarni ifodalashda quyidagi vositalar qo'llanadi: *-(i)bdi, -adi (-ydi), -gan, -gan ekan, -gan emish, -(a)r ekan, -(a)r emish, -(a)yotgan ekan, -(a)yotgan emish, -adigan (-ydigan) ekan, -adigan (-ydigan) emish, -moqchi ekan, -moqchi emish, -sin ekan, -sin emish* bilan yasaladigan fe'l kesim shakllari hamda *ot va boshqa so'z turkumlari +ekan, emish to'liqsiz fe'li* orqali hosil bo'ladigan ot kesim shakllari va b.

Nutqiy maqsadu vazifaga qarab xabar manbai aniq bo'lishi mumkin: *Tobingiz qochipti... bizning boboy shunaqa deb qoldilar* (A. Qahhor, Sinchalak).

Makrokontekst tarkibidagi gaplarning o'rni, hajmi, so'z qo'llash va hokazoda ona tili qurilishining o'ziga xos sintaktik me'yorlariga qat'iy rioya qilinsa gaplar ixchamlashib tejamkorlikka erishiladi: – *Mirza Muhiddin bilan Abbosxon qamalibdi. Siyosiy idora qamabdi. Markazdan odam keldi!* (A. Qahhor, Sarob). Ushbu misolda ta'kidlash maqsadida ob'ekt oldinga ko'chirilib sub'ekt ikkinchi gap tarkibiga o'tkazilgan. Kesim vazifasidagi ayni bir fe'l ikki nisbatda ikki marta takrorlanib ish-harakat ham ta'kidlangan. Makrokontekst oxirida gap (*shu aytdi*) tejalib ixchamlikka erishilgan. Yuqoridagi mikro- va makrokontekstlarda xabar manbai o'zlashtirma gapdan keyin kelgan.

Xabar manbai o'zlashtirma gapning o'zida keladi: *Lekin boyagi aravakash bu gapni dadamga aytibdi* (A. Qahhor, O'tmishdan ertaklar). Bu misolda makrokontekstning oldingi qismi bilan aloqani ko'rsatuvchi vosita uchta (*lekin, boyagi, bu*).

Nutqiy maqsadu vazifa taqozo qilmasa xabar manbai na makro- na mikrokontekstda aniq ifodalanmaydi. Bunday holda o'quvchining diqqati o'zlashtirma xabarning o'ziga jalb qilinadi: *Ma'lum bo'lishicha, Dodarxo'ja qishloqdan badarg'a qilinibdi, otqorovul uni Qo'qon yo'lining yarmigacha eltib qo'yibdi* (A. Qahhor, O'tmishdan ertaklar).

²¹ Зикриллаев Ф.Н. Истиқлол ва адабий тил. – Тошкент: Фан, 2004; Зикриллаев Ф. Рух ва тил. –Тошкент: Фан, 2018.

Yuqoridagi misollarda III (o'zga) shaxsning fikri o'zlashtirib bayon qilingan. Quyidagi misolda II shaxs (tinglovchi)ning ish-harakati o'zlashtirib bayon etilgan: *Shohizinda maydonida bo'lib o'tgan norozilikni o'zingiz ko'ribsiz* (A. Safarov, Navro'z).

I shaxsning kommunikativ vazifasi so'zlovchi bo'lganidan o'zi amalga oshirgan ish-harakatni o'zlashtirib bayon qilish mantiqqa ziddek tuyuladi. Ammo ba'zan o'zi haqida o'zganing fikrini o'zlashtirib bayon qiladi. Xabar manbai II va III shaxsdagidek bo'ladi: *Hikoya qilishlaricha, kelishimiz bilan tappa tashlab, och-nahor uxlab qolibman* (N. Safarov, Navro'z). – *Qaerdan olganingizni ham aytdi. – Qaerdan olibman? – O'rdadan, O'rdadagi tilla magazindan* (O'. Umarbekov, Yoz yomg'iri).

Uchinchi bob **Noqardosh tillarda o'zlashtirma xabar va uning qiyosiy tahlili** deb nomlanib uch fasldan iborat. Ushbu bobda *birinchi tur o'zlashtirmalik va gap, ikkinchi tur o'zlashtirmalik va kontekst* hamda *ikkinchi tur o'zlashtirmalik va mikromatn* haqida fikr yuritilib misol olingan matnlar bevosita va bilvosita tarjimalari bilan qiyosiy tahlil qilinadi.

Birinchi tur o'zlashtirmalik deganda ko'chirma gapdan sintaktik yo'l bilan hosil bo'luvchi o'zlashtirmalik nazarda tutiladi. O'zlashtirmalikning bu turida ko'chirma gap ham shaklan ham mazmunan o'zgarishga uchraydi. Ko'chirma gap shaklan birikma aniqrog'i birikmali to'ldiruvchiga aylanadi. Shunga ko'ra fikr anglatuvchi til birligi murakkab tushuncha bildiruvchi birikma shaklini oladi.

Ko'chirma va muallif gapidan bitta sodda gap hosil bo'ladi. Til faktlariga murojaat qilamiz:

U har safar devor oshganda, endi kolxozda "katta qoziq" bo'lganini aytib, Mehriга shon-shuhrat va'da qilar edi. (107)

Ushbu misol murakkab sodda gap, kesimi mazmunan ikkita, uyushib kelgan. Ammo shaklan o'zbek adabiy tilining sintaktik qurilishi inobatga olinganidan birinchi qism predikativ shaklga ega emas (*aytib*). Bu shakl gapning oldingi qismini keyingi qismi bilan bog'lash vazifasini bajaradi. Yozuvchi so'z bog'lovchi (*va*)ni qo'shimcha bog'lovchi (*-ib*) bilan almashtirgan. Natijada ikkala qism uzviy bog'langan. Shu nazarda tutilmasa muallif gapi kesimining to'liq shakli qo'llanib ega, kesim munosabati ifodasini topadi: *U ... aytar edi*. Bundan tashqari shu bitta gap alohida abzas qilib berilgan. Bu bilan gapda ifodalangan fikrni mikromatnning boshqa qismidan ajratib ko'rsatib unga o'quvchining diqqati jalb qilingan.

Endi ushbu misolning ruscha tarjimasini olib ko'raylik:

Добавим, что Зульфикаров не ограничивался вещественными дарами. Во время своих посещений он стремился также и поддержать дух Мехри, говоря, что теперь он в колхозе большой человек, и намекая при этом, что-нибудь достанутся почести и даже слава (206).

Tarjima ham alohida abzas qilib berilgan. Ammo uning hajmi asl nusxadan ikki baravardan ham katta. Buning boisi tarjimadagi birinchi gap asl nusxada yo'q. Bir necha so'z va birikma ham qo'shilgan. Bundan tashqari o'zlashtirma gap uyushiq kesimining har biri mustaqil predikativ shaklga ega bo'lganidan ikkita o'zlashtirma gap hosil bo'lgan. Shunga ko'ra tarjimada o'zbek matnga xos tejamkorlik aks etmagan. Ayni paytda asl nusxada abzasning boshida qo'llangan sifatdash birikma

orqali yozuvchi o'quvchining diqqatini Zulfiqorov bilan Umidaning munosabati milliy axloq qoidalariga oddiy so'zlar qo'llanganidan (*во время своих посещений*) ifoda asl nusxada nazarda tutilgan ta'sir kuchini yo'qotgan.

Nemischa tarjimadagi abzasning hajmi ruscha tarjimaga mos. Chunki birinchi gap qo'shilgan aniqrog'i oldingi abzasdan bu yoqqa ko'chirilgan. Boshqa ko'p jihat ham rus tiliga aynan o'xshash. Faqat abzasning o'zlashtirma gap qismida nemis tilining o'ziga xos grammatik xususiyati inobatga olingan. *Es ist hinzuzufügen, daß Sulfikarows Geschenk nicht nur materieller Art waren. Während seiner Besuche bemühte er sich auch, Mechris moralische Verfassung zu helfen, indem er erklärte, er sei jetzt in der Kolchose ein großer Mann, und irgendwann einmal würde auch ihr, Mechri, mit seiner Hilfe Ehre und Ruhm zuteile.* (112-113)

Bitta sodda gapda ikkita ko'chirma gap o'zlashtirib bayon qilinishi mumkin:

Qalandarov byuro sostaviga taklif qilgan nomzodlaridan Usmonjon Umarov o'tmaganini, uning o'rniga Ismoiljon Normatov o'tganini eshitib, garchi shu odamni taklif qilish esiga kelmaganiga ichidan achinsa ham, jon-poni chiqib ketdi (85).

Bu misolda ham muallif gapining kesimi fe'l bo'lsada noto'liq predikativ shaklga ega. Fe'l o'zagi xabarning o'zlashtirilganini anglatib qo'shimchasi (-ib) gapning oldingi qismini muallif gapining to'liq shakllangan kesimi bilan bog'laydi (*jon-poni chiqib ketdi*). Muhim farq shuki ikkita ko'chirma gap o'zlashtirilganidan birikmali to'ldiruvchi ikki marta qo'llangan.

Ruscha tarjimada asl nusxadagi bayon tarzi o'zgartirilgan. Oqibatda atigi ikkita gap oltita katta-kichik gapga aylanib o'n bir qatorli abzas hosil bo'lgan. Tarjimon abzasning boshidan oxirigacha diqqat-e'tiborni Qalandarovning salbiy xususiyatini bo'rttirib bayon qilishga qaratgan. Shu bois to'rt o'rinda undov belgisi qo'yilgan. O'zlashtirmalikni ifodalash uchun xoslangan to'ldiruvchi ergash gapdan foydalanilmagan. Ism familiyasi keltirilgan shaxsdan bittasi tushirib qoldirilgan, ikkinchisining faqat ismi aytilgan va hokazo. Xullas yozuvchining o'ziga xos uslubidan asar ham qolmagan.

Узнав о случившемся, Каландаров был вне себя. В конце концов он, пожалуй, мог бы и сам выдвинуть кандидатуру Исмаилджана, черт с ним, пусть бы был в бюро, он, Каландаров, вовсе не такой злопамятный, каким его считают! Его бесил не сам факт избрания Исмаилджана, а то, что он, Каландаров, внес предложение – хорошее или плохое, другой вопрос – и это предложение было отвергнуто! Он внес, а Сауда отвергла! Весь свой гнев он теперь сосредоточил именно и персонально на Сауде. А остальные тоже хороши, уже готово, пошли у нее на поводу! (175-176)

Nemis tarjimoni ruscha matnga asoslanganidan ko'pchilik qusur aynan takrorlangan. U ham o'zlashtirma gap qo'llamagan. Muallif gapining kesimini to'liq predikativ shaklda (*erfuhr*) ishlatgan xolos. Yozuvchi uslubiga rioya qilmaslik oqibatida abzasga gap soni rus tilidagidan ham bitta ko'paygan. Qo'llangan iboralardan ayrimining ma'nosi rus tilidagidek asl nusxadan keskin farq qiladi. Masalan: *ichida achinsa ham – черт с ним – der Teufel sollte ihn holen!* va b. Boshqa xato va qusurlar ham borligidan abzasni to'liq keltiramiz:

Als Kalandarow erfuhr, was vorgefallen war, geriet er außer sich. Schließlich hätte er auch selbst Ismaildshan – der Teufel sollte ihn holen! – nominieren können. Sollte er doch in die Leitung hinein, er, Kalandarow, war gar nicht so übelnehmerisch, wie man glaubte! Nicht so sehr, daß Ismaildshan gewählt war, brachte ihn in Hornisch als vielmehr das: Er, Kalandarow, machte einen Vorschlag – ob gut oder schlecht, war eine andere Sache –, und dieser Vorschlag wurde einfach abgelehnt! Er machte ihn, und Saida lehnte ihn ab! Sein ganzer Zorn richtete sich jetzt speziell und persönlich gegen Saida, und die anderen, natürlich, die waren gleich bereit, ließen sich von ihr ins Schlepptau nehmen! (75)

Ikkinchi tur o‘zlashtirmalik deganda ko‘chirma gapdan morfologik yo‘l ya‘ni qo‘shimcha va to‘liqsiz (yordamchi) fe‘l bilan yasaladigan shakllar nazarda tutiladi. Ma‘lumki ko‘chirma gapni ikkinchi o‘zlashtirma gapga aylantirganda kesimning qo‘shimchasi va to‘liqsiz fe‘l o‘zgaradi xolos. Ko‘chirma gapning lug‘aviy tarkibi o‘zgarmaydi. Rus tilida o‘zlashtirmalikni shakllantiruvchi sintaktik vositalar mavjud xolos. Nemis tilida bundan tashqari morfologik vositalar ham bor. Shu bois o‘zbek tilidagi ikkinchi tur o‘zlashtirmalikni tarjima qilishda mazkur vositalardan bittasi yoki hammasi ishtirok etadi.

O‘zlashtirmalikning birinchi turidan ko‘ra ikkinchi turi ko‘proq qo‘llanadi. Chunki ikkinchi tur shakllari birinchidan qo‘shimcha va yordamchi fe‘l bilan hosil bo‘lganidan katta jummalarni qisqartirib ixcham bayon qilish imkonini beradi. Ikkinchidan o‘zlashtirmalikning birinchi turi sintaktik yo‘l ya‘ni birikmali to‘ldiruvchi va muallif gapidan yasalgani bois ikki qisimli bo‘ladi. Ko‘chirma gap ham shunday, ikki qismdan tarkib topadi. O‘zlashtirmalikning ikkinchi turi bunday emas. Qo‘shimcha o‘zi qo‘shilgan fe‘l o‘zagini o‘zlashtirma gapga aylantiradi. Demak gap bir so‘zli bo‘ladi.

Ikkinchi tur o‘zlashtirmalikda muallif gapi (yoki xabar manbai) alohida vosita orqali ifoda etilib hajman har xil bo‘ladi, bir, ikki, uch va undan ortiq so‘zdan tarkib topadi. U faqat gap shaklida emas, so‘z birikmasi va alohida so‘z ko‘rinishida ham voqelanadi. Bularning mazmun-ma‘nosi ham turlicha bo‘lib aniq bir, bir necha shaxs yoki noma‘lum shaxs(lar)ni bildiradi. Ayrim holda xabar manbai bo‘lgan shaxsni umuman aniqlab bo‘lmaydi (ertak, rivoyat va hokazoda shunday).

Muallif gapi (yoki xabar manbai)ning o‘rni ham har xil bo‘ladi. O‘zlashtirma gapdan oldin, keyin, o‘zlashtirma fikr bilan bitta sodda gap tarkibida yoki alohida gap shaklida keladi. Nutqiy vaziyat va nutq maqsadi talabiga ko‘ra u o‘zga gapdan bir yoki bir necha gap, hatto bir necha abzas oldin yoxud aksincha keyin kelishi mumkin. Ba‘zan esa qo‘llanmay nazarda tutiladi ya‘ni tejaladi. Bunga mikro- yoki makrokontekstdagi lisoniy vosita va nolisoniy omillar imkon beradi.

-(i)bdi shakli o‘zlashtirmalikni ifodalash uchun ko‘p qo‘llanadi.

Bu yerda mazkur shakl alohida bir o‘zi qo‘llanganda o‘zlashtirmalik va uning xabar manbai voqelanuvchi mikro- va makrokontekstlardan ayriminagina tahlil qilamiz. Bunda asosiy diqqat-e‘tibor uning rus va nemis tillariga tarjimasini qiyoslab bayon qilishga qaratiladi.

Quyidagi misol bitta qo‘shma gap ya‘ni mikrokontekstdan iborat:

Ha, aytganday, qaysi kuni Hakima kelgan edi, Qahramon bo‘lishiga o‘ttiz bir tonna yetmabdi (62).

Birinchi sodda gap xabar manbai vazifasini bajarmoqda. Ixchamlik maqsadida nutq fe'li va uning egasi (*o'sha aytdi*) tejalgan. So'zlovchi tinglovchiga Hakimaning *qahramon bo'lishiga o'ttiz bir tonna yetmadi* degan fikridagi faqat *-di* qo'shimchani *-(i)bdi* bilan almashtiradi. Natijada sodda gapdan iborat o'zlashtirma xabar hosil bo'ladi. Bu *mikrokontekst minimal kontekstga* aylantirilganda ya'ni gapning egasi aniqlovchisi (*o'ttiz bir tonna*) bilan va kengaygan to'ldiruvchi (*qahramon bo'lishiga*) tushirib qoldirilsa ham fe'l o'zagi anglatgan ish-harakatning o'zlashtirib bayon qilinganligi anglashilaveradi.

Endi ruscha tarjimadan o'zbekcha mikromatnga mos keladigan qismini qiyoslab ko'ramiz:

А Ходжар – ты помнишь ее, - кивнула она Таджихон – недавно приезжала к нам, говорят, что для звания Героя у нее всего тридцать одной тонны не хватило! (144).

Tarjimaning grammatik jihatini asl nusxaga birmuncha mos desa bo'ladi. Chunki o'zbekcha o'zlashtirma gap sintaktik yo'l bilan ergash gap orqali berilgan, ergashtiruvchi bog'lovchi (*что*) qo'llangan. Kesimning shakli va boshqa bo'laklar ko'chirma gapdagidek, o'zgarmagan. Ammo xabar manbai o'zgartirilgan. Asl nusxada xabarni ushbu nutqiy amalda so'zlovchi bo'lgan shaxs (Huriniso) boshqa nutqiy amalda tinglovchi sifatida so'zlovchining o'zidan eshitgan. Tarjimada qo'llangan so'z (*говорят*) esa aniq bitta shaxsni anglatmaydi.

Nemischa tarjima bilvosita bo'lgani uchun ruscha matndagi xatolar ko'pchiligi aynan takrorlangan. Jumladan gap qo'shilgan, asl nusxa va ruscha matnda yo'q so'z (*mehnat – die Arbeit*) qo'llangan, bayon hissiy va b. Xabar manbai vazifasida modal fe'l (*sollen*) kelgan. Chunki bu fe'l ma'nolaridan biri *o'zlashtirmalik* bo'lib rus tilidagi *govoryat* fe'lga mos keladi. Uning infinitiv 2 bilan qo'llanishi o'zlashtirilgan ish-harakatning o'tgan zamonda ro'y berganligini ko'rsatish bilan izohlanadi:

Und Chodshar – du erinnerst dich doch an sie -, „wandte sie sich an Tadshichon,“ - sie hat uns kürzlich besucht – ihr sollen nur einunddreißig Tonnen für ihre Auszeichnung als Held der Arbeit gefehlt haben! (35)

--- Endi o'zlashtirmalikning *-(i)bdi* qo'shimchasi orqali *makromatnda* ifodalanishiga bitta misol olib ko'ramiz:

Bizning boboni juda yaxshi bilib olibsiz. U kishini partiya majlisida intizomga bo'ysundiribsiz. Sizni orqa qilib, xotinlar u kishini tanqid qilishibdi... A'zamjon bilan Toshkentda ko'rishgan edim, o'sha gapirib berdi. (134)

Makromatn bir abzas, uchta sodda va bitta qo'shma gapdan tuzilgan. Sodda gaplarda o'zlashtirma xabar uch marta ifodalangan. Ikkita sodda gapda II shaxsning, bittasida III shaxsning fikri o'zlashtirib bayon qilingan. Boshqacha aytganda ikki marta tinglovchining, bir marta o'zga shaxsning fikri o'zlashtirilgan. So'zlovchi uchala gapda ham lisoniy vosita bilan ifodalanimay nazarda tutilgan. Tinglovchini ifodalash uchun faqat qo'shimcha (*-siz*) qo'llangan. Abzasning oxiridagi qo'shma gap o'zlashtirma xabar manbai vazifasida kelgan. Undan so'zlovchi Kozimbek o'zlashtirib bayon qilgan uch qismli xabarni Toshkent shahrida A'zamjondan eshitgan bo'ladi. Endi asl nusxadagi makromatnning bevosita tarjimasiga murojaat qilamiz:

Козимбек перестал краснеть и ещё раз повторил, что Саида, кажется, неплохо изучала его отца.

- До меня ещё по дороге сюда дошёл слух, будто бы, когда он ушел без разрешения, вы заставили его вернуться на партийное собрание, и, уж поверьте мне, я то знаю, что заставит моего папашу совершить такой вполне нормальный для другого человека поступок – значить, сделать большое дело! А потом мне говорили, что, почувствовав вашу поддержку, тут даже женщины критиковали его. Ну, а это уж вообще не было от сотворения мира! А знаете, кто мне все это рассказал? Аъзамджан! Я встретился с ним по дороге. (242)

Ко‘rinib turibdiki tarjimonlar yozuvchi uslubiga erkin yondashganligidan shaklan o‘zgarish ko‘p. Asl nusxadagi besh qatorli abzasdan o‘n ikki qatorli ikkita abzas hosil bo‘lgan. O‘zgartirilgan va qo‘shilgan so‘z, gap ancha. Asl nusxada atigi bitta nutq fe‘li (*gapirib berdi*) qo‘llangan bo‘lsa tarjimada *повторил, слух, говорили, рассказал* kabi ot va fe‘llar ishlatilgan. Asl nusxadagi ixcham va ketma-ket kelgan o‘zlashtirma gaplar kengayib kelgan, bir-biridan ajratilgan. Ikkitasi bog‘lovchi (*что*)li ergash gap bilan o‘girilgan-u bittasining shakli o‘zgartirilgan va b.

Nemischa tarjima bilvosita bo‘lganidan rus tarjimonlari yo‘l qo‘ygan kamchilik va qusurlar aynan takrorlangan. Jumladan faqat abzas soni emas, qator soni ham teng. O‘zlashtirmalikning sintaktik belgisi bo‘lgan bog‘lovchi (*daß*)li ergash gap ikkita. O‘zlashtirmalikning morfologik belgisi bo‘lgan kon’yunktiv zamon shakli bir marta bog‘lovchili va bir marta bog‘lovchisiz ergash gapda qo‘llangan. Shuni e’tirof etish joizki ikkala tarjimada ham Kozimbekning Saidaga murojaatida asl nusxadagidek uch o‘rinda hurmat shakli ishlatilgan.

Ruscha tarjima va asl nusxa bilan qiyoslab ko‘rish uchun nemischa makromatnni to‘liq keltiramiz:

Von Kasimbeks Gesicht wich die Röte, und er wiederholte nochmals, daß sie, Saida, den Vater wohl nicht schlecht kenne.

„Schon auf dem Wege her habe ich gehört, Sie hätten ihn zur Rückkehr veranlasst, als er die Versammlung ohne Erlaubnis verließ. Glauben Sie mir, ich weiß, was das bedeutet, Vater zu einem solchen Schritt zu veranlassen, der jedem anderen als völlig normal erscheint. Ich habe auch gehört, daß die Frauen ihn kritisiert haben, als sie Ihre Unterstützung spürten. Kaum vorstellbar! ... – Das hat es seit Erschaffung der Welt noch nicht gegeben! Und wissen Sie, wer mir das alles erzählt hat? Aqsamdshan! Ich traf ihn unterwegs.“ (157-158)

Endi to‘liqsiz fe‘l bilan hosil bo‘luvchi shakllar tahliliga o‘tamiz. Dastlab -gan ekan shaklini olib ko‘ramiz:

O‘shanda gapni shu boshlab, ayollar qiy-chuv ko‘tarishgan ekan. (164)

Bu misol mikrokontekst bo‘lib -gan ekan shaklining o‘zlashtirma xabar va o‘tgan zamon semalari namoyon bo‘lgan. Bu semalarning birinchisi to‘liqsiz fe‘l bilan, ikkinchisi qo‘shimcha (-gan) orqali ifodalanmoqda. Mikrokontekstdagi birinchi so‘z (*o‘shanda*) ham zamon semasiga daxldor. U ko‘chirma xabarning hozir emas, ilgari boshqa bir nutqiy amalda o‘zlashtirib bayon qilinganini bildiradi.

Ruscha tarjima bevosita bo'lsa ham asl nusxadagi o'zlashtirma gapning na mazmuni na shakli o'z ifodasini topgan. Boshqacha aytganda mikro- va makrokontekstda xabarni o'zlashtirib bayon qilinganligini ko'rsatuvchi na lug'aviy na sintaktik va na morfologik vosita qo'llangan. Oqibatda mikromatndagi xabarni so'zlovchi bevosita o'zi kuzatib, guvohi bo'lib bayon qilayotgandek tasavvur hosil bo'ladi:

Да, это была она – Ойнуса, хорошо известная на весь район звеньевая, это она в дни отъезда Каландарова, на лекции для женщин, первая открыла ему огонь. (285)

Nemis tilida o'zlashtirmalikni ko'rsatuvchi ergash gap, ergashtiruvchi bog'lovchi (*daß*), mustaqil sodda gap, mayl (kon'yunktiv) zamon shakli va lug'aviy vositalar bo'la turib ularning birortasidan foydalanilmagan. Buning sababi ruscha tarjima asos qilib olinganligidir. Tarjimon hatto so'zlovchi (Qalandarov) mazkur o'zlashtirma gap aytilganda uning guvohi bo'lmaganligini bevosita ko'rsatuvchi so'zlar (*während der Abwesenheit Kalandarows*)ga ham e'tibor bermaydi. Ruscha matndan farq bitta. Makromatndagi *zvenevaya* so'zi *eine Brigadierin* deb o'zgartirilgan xolos:

Ja, es war Ojnissa, eine in der ganzen Gegend bekannte Brigadierin, die seinerzeit, während der Abwesenheit Kalandarows, auf der Frauenversammlung als erste das Feuer gegen ihn eröffnet hatte. (213)

Sintaktik birlik bo'lganidan gap kabi mikromatnga ham yaxlitlik, tugallik xos deb qaraladi. Adabiyotlarda ko'rsatilishicha mikromatn yaxlitligi uch xil ko'rinishga ega: 1) tuzilishiga ko'ra (shakliy, zohiriy, struktur) yaxlitlik; 2) mazmun-mundariyasi jihatdan yaxlitlik; 3) nutqiy (kommunikativ) yaxlitlik yoki uning vazifa (funktsiya)si²².

Mikromatnning mazmuniy yaxlitligi undagi mazmuniy asos (ya'ni tema)ning bittaligida o'z ifodasini topadi. Mikromatn temasi deganda uning mazmuniy yadrosi ya'ni butun matnga xos umumlashgan mazmun nazarda tutiladi²³. Mazmuniy asos ifodalanishi jihatdan to'rt guruhga ajratiladi: 1) almashish, 2) takror, 3) implikasiya (tushib qolish) va 4) koordinatsiya²⁴.

Almashish deganda mikromatn tarkibidagi keyingi gapdagi biror unurning oldingi gapdagi oldingi gap biror unsur o'rnida qo'llanishi nazarda tutiladi. Bunday holda almashtirishdan foydalanilmasa mikromatnning faqat mazmun emas, tuzilish va kommunikativ yaxlitligiga ham putur yetadi. Almashish vositasi uch xil: 1) olmosh, 2) ma'nodosh so'z, 3) payt va o'rin holi²⁵.

Takror. Mustaqil gaplarning mazmun jihatdan ifodalashda ya'ni mikromatnga birlashtirishda lisoniy vositalarning takror qo'llanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Takror qo'llanadigan vositalar sirasiga ot (atoqli, turdosh, mavhum), sifat, ravish, fe'l turkumiga oid so'zlar, so'z birikmasi hamda gap kiradi.

²² Москальская О.И. Грамматика текста. – Москва: Высшая школа, 1981. 18-б.

²³ Agricola E. Vom Text zum Thema. *Studia grammatica*. Bd.XI. Berlin, 1976. S. 15–25

²⁴ Тухсанов М. Микротекст и система средств выражения его когерентности в узбекской художественной речи. Дисс. ... канд. филол. наук. Бухара – Андижан, 1987. С. 29.

²⁵ O'sha yerda. 31-б.

O'zbek tilshunosligida mikromatnga bag'ishlangan tadqiqotda *implikatsiya tushib qolish* degan ma'noda tushuniladi. Bunda avvalo ikki va undan ortiq mustaqil sodda gapning mazmunan yoki mantiqiy yo'l bilan bitta mikromatnga birlashib sabab-natija (1) va butun-qism (2) munosabati ifodalanishi nazarda tutiladi: Bundan tashqari tejash qonuniyati asosida muayyan lisoniy vositaning tushib qolishi ham implikatsiya deb ataladi. Quyidagi mikromatnda birinchi gapdagi ot (*Ummatali*) o'rnida ikkinchi gapda qo'llanadigan olmosh (*u*) tushib qolgan: *Ko'cha muyulishiga kelganda Ummatali to'xtadi. Xotiniga qaradi* (S. Ahmad). Ushbu mikromatn tematik zanjiri chizmasida ikkinchi gap temasi qavsda implikatsiya deb ko'rsatilgan. Bundan ikinchi gap temasi lisoniy vosita bilan ifodalangan degan ma'no anglashiladi. Ikkinchi gapda olmosh tushib qolgan deyilishining sababi shuki tadqiqotchi eng kichik mustaqil sodda gap deganda *ega va kesimdan iborat gapni* tushunadi. Substansial (formal-funksional) sintaksis hamda til ruhiy-ijtimoiy xilqat deb qaraladigan yo'nalishlar nuqtai nazaridan yondashsak bu talqin o'zbek tili qurilishining o'ziga xos xususiyatiga mos kelmaydi deb e'tirof etishimizga to'g'ri keladi. Bunday holda olmosh *tushib qoladi emas, tejaladi* deb uning sabablari bayon qilinadi. Sabab shuki birinchi gapda ega atoqli ot (*Ummatali*) bilan ifodalanganidan uni yana ta'kidlash zarurati yo'q.

Mikromatnning kommunikativ yaxlitligi ikki yo'l bilan hosil bo'ladi. Avvalo mikromatn tarkibiy qismlarining ketma-ket zanjirsimon aloqasidan iborat. Mikromatn tarkibidagi har bir keyingi gap kommunikativ jihatdan o'zidan oldingi gapga tayanib axborotni davom ettiradi. Natijada tema-rematik zanjir hosil bo'lib uning nihoyat mikromatn chegarasini bildiradi. Shunday qilib tema-rematik zanjir matn hosil qilish vazifasini bajaradi. Ikkinchidan matnning kommunikativ tahlilida W. Dressler, F. Daneš, H. Isenberg²⁶ kabi tadqiqotchilar *kommunikativ maqsad* yoki *kommunikativ vazifa* atamasidan foydalanadi. An'anaviy sintaksisda kommunikativ maqsadning gapga nisbatan belgilangan uch asosiy turi bor: 1) darak, 2) so'roq va 3) buyruq. Bular matnga ham nisbat beriladi.

Matnning tuzilish jihatdan yaxlitligi jumladan germanistika va rus tilshunosligida ko'p o'rganilgan²⁷. Olimlarning fikriga tuzilish jihatdan yaxlitlik matn mazmuniy va kommunikativ yaxlitligining ifoda vositasi hisoblanadi. Bunday vositalarga kishilik, ko'rsatish va egalik olmoshi, olmosh-ravish, artikl, zamon shakli, son, ma'nodosh, ma'nosi yaqin ochqich so'zlar, lug'aviy takror, payt va o'rin ravishi, bog'lovchi, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar shuningdek yuklama va modal-kirish so'zlar kiradi. Bu vositalar o'zi qo'llangan gapning *oldingi yoki keyingi gap(lar) bilan bog'liqligini*²⁸ ko'rsatish uchun xizmat qilib matn hosil bo'lishida ishtirok etadi. Masalan *Der Schwan und ihr Boot glitten lautlos aneinander vorüber* gapi alohida olib qaralsa aniq artikl (*der*) va egalik olmoshi (*ihr*) qo'llanganligining

²⁶ Dressler W. Einführung in die Textlinguistik. – Tübingen. De Gruyter, 1981. –304 S.; Daneš F. Zur linguistischen Analyse der Textstruktur. Folia linguistica, 4, 1970. – S. 72–78; Isenberg H. Der Begriff "Text in der Sprachtheorie." ASG. Bericht, №8, 1970. – S. 1 – 21.

²⁷ Москальская О. И. Грамматика текста. – М.: Высшая школа, 1981; Gansel Ch., Jürgens F. Textlinguistik und Textgrammatik. Eine Einführung. - 1. Auflage. - Göttingen: Vandenhoeck & Ruprecht. 2007. 270 S; Grosse E.U. Text und Kommunikation. Eine linguistische Einführung in die Funktionen der Texte. – Stuttgart: Franz Steiner Verlag, 2006. – 390 S.

²⁸ Bularning birinchisi anaforik, ikkinchisi kataforik aloqa, bog'lanish deb ataladi. [M. To'xsanov, 1987, 22]

sababi aniq bo'lmay qoladi. Gap esa tuzilish jihatdan yaxlit, tugal bo'lmaydi. Tarkibidagi mazkur vositalarda oldinga ishora mavjud. Binobarin oldingi gaplarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Shundagina faqat tuzilish jihatdan emas, mazmunan va kommunikativ jihatdan ham tugallik hosil bo'ladi: *Im Kanal lag ein Boot; sie mieteten es und schwammen dahin. Ein Schwan kam ihnen entgegen. Der Schwan und ihr Boot glitten lautlos aneinander vorüber* (H. Mann).

Qisqacha sharhdan ma'lum bo'ladiki xorijiy (nemis, rus) tillarda mikromatn yaxlitligi ham nazariy ham amaliy jihatdan yetarli darajada o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida esa mikromatnning tuzilish jihatdan yaxlitligi mutlaqo o'rganilmagan. Mazmuniy va kommunikativ yaxlitlik qisman tadqiq etilgan.

Endi tarkibida ikkinchi tur o'zlashtirmalikning uch xil shakli kelgan mikromatndan ayrimini bevosita va bilvosita tarjimaga asosan qiyosiy tahlil qilamiz. Avval mikromatnni asl nusxada olib qaraymiz:

To'ydan keyin Huriniso yana bir yarim yilga yaqin chala-chulpa o'qituvchilik qilibdi. Qalandarov kolxozda brigadirlikka tayin qilingandan keyin uni o'z brigadasiga kiradigan ipakchilik zvenosiga boshliq qildiribdi. Bular Mirzacho'lga ko'chib kelishganda ham Qalandarov "O'zbekiston" kolxozida brigadir, Huriniso ipakchilik zvenosining boshlig'i bo'lgan ekan. Qalandarov kolxozga rais bo'lganidan keyin Hurinisoni – bolalar bog'chasiga mudir qilib tayinlabdi. Huriniso bu yerda – "Bo'ston" kolxozida ham bog'cha mudiri, lekin bog'cha hovliga uzoqroq bo'lgani uchun shu Kifoyatxonni o'ziga o'rinbosar qilib olibdi. Huriniso vaqti-soati bilan boshqa durustroq ishga o'tmoqchi bo'lgani uchun bu vazifaga vaqtincha deb qarar, bog'chaga faqat o'sha tomonga yo'li tushgandagina birrov kirib chiqar, hamma ishni Kifoyatxonning o'zi qilib, oylikni ham o'zi olar ekan. (63-64)

Mikromatn to'liq o'zlashtirma xabardan iborat. So'zlovchi Huriniso, tinglovchi Saida, ularning suhbatini bir necha abzasga bo'lingan. Ushbu abzasda Hurinisoning nutqi muallif nomidan o'zlashtirib bayon qilingan. O'zlashtirish odatdagidek morfologik vositalar orqali amalga oshirilgan. Mikromatnda uch xil morfologik vosita jami to'qqiz marta qo'llangan. Shundan *-(i)bdi* to'rt marta, *-(a)r ekan* uch marta va to'liqsiz fe'lning o'zi ot kesim tarkibida ikki marta uchraydi. Takrorning oldini olish maqsadida to'liqsiz fe'l *-(a)r ekan* shaklida ikki marta, ot kesim tarkibida bo'lgan *ekan* ko'rinishida bir marta tejalgan. Bundan tashqari *-(a)r ekan* bir o'rinda tejalib *-(i)b* qo'shimchasi bilan almashtirilgan. Tejamkorlik takror almashish kabilar bilan birga mikromatn qismlarini bir-biri bilan bog'lab uning zohiriy va mazmuniy yaxlitligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ruscha tarjima uch abzasga ajratilgan. Birinchi abzasda (6 qatorli) xabar manbai joylashgan. Quyidagi qisqartirilgan jumladan tinglovchining Saida ekanligi ma'lum bo'ladi: *...но зато постепенно, из обрывков фраз, Саида, вопреку желанию рассказчицы, ясно поняла...* Ushbu jumlada so'zlovchi (turdosh ot) (*рассказчица*) bilan ifodalangan. Uning Huriniso ekanligini abzas boshidagi gapdan bilib olamiz.

Keyingi ikki abzasda (14 va 6 qatorli) Hurinisoning hikoyasi muallif nomidan bayon qilingan. Ushbu hikoyaning o'zlashtirma xabar ekanligi birinchi abzasdagi

lug‘aviy vosita va ikkinchi abzas boshidagi lug‘aviy vositadan anglashiladi xolos. Qiyoslash uchun ikkinchi abzas boshidagi ikkita gapni keltiramiz:

Как мы уже знаем, после свадьбы Хурниса еще года полтора учительствовала, потом став бригадиром, Каландаров быстро добился, чтобы жена стала звеньевой у него под крылышком. (147)

Nemischa tarjima asl nusxadan emas, bilvosita bo‘lganidan mikromatn hajmi ham lug‘aviy va grammatik tarkibi ham ruschaga aynan mos. O‘zlashtirmalikning nemis tiliga xos grammatik vositalaridan umuman foydalanilmagan. Avvalo ruscha so‘ngra asl nusxa bilan qiyoslab ko‘rish uchun ikkinchi abzas boshidagi ikkita gap tarjimasini keltiramiz:

Wie wir schon wissen, war Churnisa nach der Hochzeit noch anderthalb Jahre als Lehrerin tätig gewesen; dann hatte Kalandarow, mittlerweile Brigadierin geworden, es rasch erreicht, seine Frau zu sich in die Verwaltung zu holen. (39)

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **Noqardosh tillarda nutq turlari va mikromatn** deb nomlangan. Ushbu bobda noqardosh tillarda nutq turlarining mikromatnda qo‘llanishi bevosita va bilvosita tarjima asosida qiyoslab uzvli tahlil qilinadi. Bob uch fasldan iborat. Birinchi faslda bitta mikromatn tarkibida o‘zlashtirmalikning ikkala turi birgalikda qo‘llanishi, ikkinchi faslda ikkinchi tur o‘zlashtirmalik, ko‘chirma nutq va mikromatn, uchinchi faslda esa o‘zga nutq, muallif nutqi va mikromatn birga qo‘llanishi uzvli, matniy, kontekstual va qiyosiy-tipologik tahlilga tortilgan.

Mikromatn yaxlitligi murakkab va serqirra bo‘lganligidan ushbu bobda uning to‘rt jihati inobatga olinadi. Bular: 1) mikromatn tarkibidagi bog‘lovchilar, 2) mikromatnda kommunikativ maqsad kategoriyasining bitta a‘zosi ya‘ni o‘zga va muallifning o‘z xabari, 3) mikromatn chegarasi hamda 4) tinish belgilarining qo‘llanishi.

Shuni eslatish joizki mikromatnga nisbatan bog‘lovchi so‘zlar deganda o‘zi qo‘llangan gapning oldingi yoki keyingi gap(lar) bilan bog‘langanligini bildiruvchi vositalar nazarda tutiladi. Bunday vosita ko‘p bo‘lib ma‘nosiga ko‘ra o‘ndan ortiq guruhga bo‘linadi: 1) payt (*avval, keyin, ba‘zan, so‘ngra, o‘shanda, shu payt, shundan keyin, ana shunda*); 2) o‘rin (*shu yerda, o‘sha yerda, o‘sha joyda*); 3) xulosa (*demak, modomiki, binobarin, xullas, shunday qilib*); 4) tasdiq (*ha, mayli, xo‘p, to‘g‘ri*); 5) inkor (*yo‘q, aslo*); 6) zidlik (*aksincha, aks holda*); 7) o‘xshatish (*shuningdek, shu kabi*), 8) qiyoslash (*shunday, shuningdek, ana shunday, esa*); 9) umumlashtirish (*umuman*); 10) ko‘rsatish (*ana shular, mana bular, ana o‘shalar*); 11) ajratib ko‘rsatish (*ayniqsa, xususan*); 12) tartib (*birinchidan, ikkinchidan, nihoyat, oxir, avval*); 13) fikrning kimga qarashliligi (*menimcha, seningcha, uningcha, bizningcha*) va hokazo.²⁹

Tahlilni bitta mikromatn tarkibida qo‘llangan birinchi va ikkinchi tur shakllaridan boshlaymiz. Mikromatn hajman katta bo‘lsa mazkur shakllardan boshqasi tahlil qilinmaydi. Jumladan birinchi misolimizda shunday. Mikromatn ikki abzasdan iborat. Ochqich so‘z ikkita bo‘lib atoqli ot (*Nosirov va Saida*) orqali

²⁹ Inoyatov A., Zikrillayev G‘. Ruh va til//Qur‘oni karim oyatlari mazmun-ma‘nosining o‘zbekcha izohli tarjimasini. Toshkent, “Hilol nashr”, 2022, 69-bet.

ifodalangan. Matnning asosiy mazmunini ularning uchrashuvi bilan bog'liq xabar tashkil etadi. Shu bois mikromatnni *Uchrashuv* deb nomlasa bo'ladi.

Matnning boshlanishi oldingi abzasdagi gapdan, oxiri esa uchinchi abzasning birinchi gapi (*Nosirov jo'nab ketdi*)dan anglashiladi. Matn tarkibidagi sodda va qo'shma gaplarni o'zaro bog'lashda asosan *almashish* va *takror* ishtirok etadi.

O'zlashtirmalikning ikkinchi tur shakli abzasning birinchi gapi tarkibida kelgan. Mikromatndan oldingi abzas tarkibidagi bitta gapda Nosirovning Saida bilan *so'zlashgani* ifoda etilgan. Suhbat davomida Nosirov Saidaga "*Vatan*" kolxoziga o'tib ketayapman deydi. Saida ana shu xabarni o'zlashtirib bayon qiladi. Ish-harakat nutq vaqtida sodir bo'layotganligi va tugamaganligi bois so'zlovchi *-ayotgan ekan* shaklini qo'llaydi. Binobarin mazkur shakl orqali *o'zlashtirma xabar* bilan birga *nisbiy hozirgi zamon va davomlilik* semalari ham namoyon bo'lgan:

Nosirov "Vatan" kolxoziga o'tib ketayotgan ekan, aftidan, ko'p o'tirmaydiganga o'xshab qoldi (92).

Asarning rus tarjimonlari yana yozuvchi uslubiga yetarli e'tibor bermaganligining guvohi bo'lamiz. Jumladan ikki abzasli mikromatn olti abzasga aylantirilgan. Deyarli barcha o'rinda so'z, birikma yoki gap qo'shilgan. Natijada asl nusxadagi ixchamlikdan asar ham qolmagan. O'zlashtirmalikning ikkinchi tur shakli qo'llangan birgina gapning tarjimasiga bunga yaqqol dalil bo'la oladi:

Это было не совсем верно; он действительно ехал в «Ватан», но вовсе не так уж спешил и первоначально как раз имел намерение, заехав сюда, не только поддержать авторитет Сауды, но и часок поговорить с ней (185).

O'zlashtirmalikning birinchi turini esa olti abzasning birortasi tarjimasidan ham topib bo'lmaydi.

Shuni ta'kidlash joizki nemischa tarjima hajman ruschadan keskin farq qiladi, atigi bir abzas. Ayni vaqtda o'zlashtirmalikning na lug'aviy, na grammatik vositasi qo'llangan. Natijada suhbat muallifning o'z nutqiga aylanib qolgan. Dalil tariqasida abzasning birinchi gapini keltiramiz:

Das entsprach nicht ganz der Wahrheit; er fuhr wohl in den „Batan“³⁰, hatte es aber ganz und gar nicht so eilig. 86

Qiyos uchun tanlangan keyingi mikromatn hajman ancha ixcham, uncha katta bo'lmagan abzasdan iborat xolos. Birinchi gapda qo'llangan ochqich so'z (*qudalar*) yangi mikromatn boshlanganini ko'rsatadi. Abzas oxirigi qo'yilgan ko'p nuqta uning tugaganidan dalolat beradi. Keyingi abzas alohida nutqiy amal bo'lib ochqich so'zning boshqa (*Eshon*) ekanligi bu fikrni tasdiqlaydi. Ayni paytda ko'p nuqta asar muallifi nutq ishtirokchilarining ayrim fikrini nazarda tutib tejamkorlikdan foydalanganini bildiradi.

Birinchi mikromatnda har qaysi turdan bittadan o'zlashtirma shakl qo'llangan bo'lsa bunisida ikkinchi turning ikkita shakli mavjud:

Qudalar har qaysisi o'z bolasi bilan ochiqchasiga gaplashdi. Ikkovining ham suygan yori bor ekan. Manzuraxon opasiga xushmo'ylov bir yigitning suratini ko'rsatdi. Yigit mashhur bir artistning o'g'li bo'lib, hozir Moskvada o'qiyotgan ekan. Eshon qiziga baqirdi, do'q qildi, urmoqchi ham bo'ldi-yu taxt turib bergan

³⁰ Bu texnik xato bo'lsa kerak.

Manzuraxonga qo‘l ko‘tarolmadi. Kozimbek suygan yori borligiga iqror bo‘ldi-yu, kim va qaerda ekanini aytmadi. Huriniso³¹, o‘g‘liga qattiq gapirib g‘avg‘o ko‘tarolmadi: bir tomondan, busiz ham abgor bo‘lib yotgan erini notinch qilgani ko‘ngli bo‘lmasa, ikkinchi tomondan, bittayu bitta o‘g‘il... (174).

Mikromatn tuzilishida ham uning kommunikativ xususiyatini shakllantirishda ham yozuvchining ixcham tejamkor uslubi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mikromatn beshta sodda va ikkita qo‘shma gapdan tuzilgan. Avval sodda gaplar qo‘llangan.

Mikromatn tarkibidagi gaplarni bir-biri bilan bog‘lash uchun birorta so‘z yoki birikma ishlatilmagan. Tejamkorlikka izchil rioya qilingan. Chunonchi ikkinchi sodda gap boshida *ma‘lum bo‘lishicha*, uchinchi gapdan oldin *shunda*, to‘rtinchi gap oldidan bog‘lovchi vazifasidagi *bu* ko‘rsatish olmoshi tejalgan. Birinchi qo‘shma gapning egasi (*Kozimbek*)dan keyin qiyoslash ma‘nosidagi *esa*, ikkinchi qo‘shma gapdan oldin zidlovchi bog‘lovchi (*ammo*), uning ikkinchi qismi oldidan sabab bog‘lovchisi (*chunki*) qo‘llanmay nazarda tutilgan.

Tinish belgilarini ishlatishning davom etayotgan amaldagi qoidalari inobatga olinganligidan bog‘lovchi vazifasidagi ravishdosh qo‘shimchasi *-(i)b*, shart-istak mayli qo‘shimchasi *-sa*, yuklama, *-yu* (uch marta), *bir tomondan, ikkinchi tomondan* kirish so‘zlaridan keyin vergul qo‘yilgan. O‘zbek adabiy tili qurilishiga xos tejamkorlikka rioya qilinsa ularning barchasidan keyin vergul ortiqcha.

Shuni ta’kidlash joyizki ushbu mikromatn ruscha tarjimasining oldingisidan afzal jihatlari bor. Jumladan xabar manbai bo‘lib kelgan gap o‘g‘irilgan:... *a вечером каждая мамаша поспешила поговорить начистоту со своим чадом (296).* O‘zlashtirmalikning birinchi turi ergash gapli qo‘shma gap orqali tarjima qilingan: *Казимбек карточки не показывал, имени не называл, но тоже дал понять, что любит не Манзуру, а другую.* O‘zlashtirmalikning ikkinchi tur shakllari ham sintaktik yo‘l bilan o‘g‘irilgan: (1) *Увы, оказалось, что у детей совершенно другие проекты, чем у родителей*; (2) *Манзура показала матери фотографию какого-то прекрасного собой молодого человека с усами сказав, что он сейчас учится в Москве и скоро станет режиссёром (297).* Ko‘rinadiki asl nusxada o‘zlashtirmalikning faqat sintaktik yo‘l bilan emas, morfologik vosita bilan ifodalanadigan shakli ham bir xil o‘g‘irilgan. Bu noqardosh tillar qurilishidagi o‘ziga xoslik bilan izohlanadi. Ammo mikromatn hajmini kengaytirib bir abzasning to‘rt abzasga aylantirilganligini ham shunday izohlay olmaymiz.

Nemis tarjimoni asl nusxadan foydalanmagan bo‘lsa-da uchala o‘zlashtirma gap tarjimasida ham olmon tilining morfologik va sintaktik imkoniyatini to‘liq inobatga olgan: (1) *Leider stellte es sich heraus, daß die Kinder ganz andere Pläne hatten als die Eltern*; (2) *Mansura zeigte der Mutter die Fototrafie eines jungen Mannes mit Schnurrbärtchen und fügte hinzu, er studiere in Moskau und würde Regisseur*; (3) *Kasimbek zeigte kein Bildchen, nannte auch keinen Namen, gab aber ebenfalls unmißverständlich, daß er nicht Mansura, sondern eine andere liebe (228-229).* O‘zlashtirmalik vositalarining qo‘llanishidagi izchillik diqqatga sazovor. Birinchi gapda faqat sintaktik vosita (bog‘lovchili ergash gap)dan foydalanilgan.

³¹ Ega (Huriniso)dan keyin qo‘yilgan vergul texnik xatoga o‘xshaydi.

Uchinchi gapda o'zlashtirmalikni shakllantirishda ham sintaktik ham morfologik vosita ishtirok etgan.

Ikkinchi tur o'zlashtirmalik an'anaviy tilshunoslikda tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolgan bo'lsa ko'chirma xabar e'tirof etilganidan ko'proq shakl va o'ziga xosliklarga ega. Jumladan o'zlashtirma xabar ifodalovchi mustaqil so'z turkumlari (fe'l, ot va otlashgan so'zlar)ning o'zak, negizidan hosil bo'luvchi o'nga yaqin shakl mavjud. Ularga *o'tgan, hozirgi va kelasi zamon* bilan birga *bevosita kuzatmaganlik* (aniqrog'i *eshitganlik, o'zlashtirmalik*) semasi bor. Mazkur shakllarning barchasi xabar mayli tarkibiga kirib alohida qator (paradigma) hosil qiladi. Ko'chirma xabar shakllari ham aniqlik (xabar) mayli tarkibiga kiradi. Ushbu shakllar *o'tgan, hozirgi, kelasi zamondan* tashqari *bevosita kuzatganlik* (bevosita xabardorlik) semasini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Dastlabki misol hajman katta mikromatn (VI bob, 85-90-betlar)dan olindi:

– *Men yaxshi bilmayman, - dedi Saida, - kommunistlar yaxshi bilishar ekan.*
(89)

Misol tarkibida uchta darak gap bor. Uchalasi ham xabar anglatadi. Birinchi gap ikkinchisi bilan birgalikda ya'ni sintaktik yo'l bilan ko'chirma xabarni shakllantiradi. Birinchi gapning egasi qo'shimcha (-*man*) va kishilik olmoshi (*men*) bilan ifodalangan. Ikkalasi ham I shaxsda turganidan ega nutqiy amalda so'zlovchi vazifasini bajaradi. Shunga ko'ra kesim vazifasidagi fe'ldan anglashilgan *xabardorlik* lug'aviy semasi so'zlovchiga daxldor. Fe'lga tobe bo'lak (hol) xabardorlik darajasini ko'rsatadi. Binobarin gapdan anglashilgan fikr (propozitsiya) to'ldiruvchi vazifasidagi nazarda tutilgan shaxsni so'zlovchi yaxshi bilmasligidir. Ikkinchi gap egasi kesimning qo'shimchasi (-*di*) orqali umumiy tarzda voqelanib atoqli ot (*Saida*) bilan oydinlashadi. Kesim vazifasidagi nutq fe'lining o'zagi III shaxs birlik qo'shimchasini olganidan shaxs aytganligini anglatadi. Ammo xabarni uning tilidan muallif bayon qilmoqda. Kesimning III shaxs birlik qo'shimchasini olishi shu bilan izohlanadi. Shunga ko'ra bunday gap muallif gapi yoki xabar manbai deb ataladi.

Uchinchi gapni ham Saida aytadi. Bundan ushbu gapning ikkinchi gap bilan aloqadorligi ayon bo'ladi. Uchinchi gapning chiziq bilan yozilganligi ham shundan. Shu bilan birga uning kesimiga o'zlashtirmalik vositasi -(a)r *ekan* qo'shiladi. Chunki bu gapdagi fikr egasi o'zga shaxslar (*kommunistlar*) bo'lib Saida uni boshqa nutqiy amalda eshitgan. Mazkur nutqiy amalda shu o'zlashtirib bayon qilinmoqda.

Modomiki muallif gapi o'zlashtirma xabarga ham taalluqli ekan yozuvchi uni nega o'zlashtirma xabardan keyin joylashtirmagan degan savol tug'iladi. Buning sababi mikromatnda tahlil qilinayotgan misoldan oldin ikki abzas qilib berilgan savoldan ma'lum bo'ladi:

Qalandarov bunga qarshi nima deyishini bilmay so'radi:

Ismoiljon Normatovni bilasizmi? (89)

Ko'rinadiki qisqa savolga Saida ixcham javob qaytaradi, so'ngra uni qo'shimcha xabar bilan to'ldiradi. Bu bir jihatdan yozuvchining tejamkorlikka rioya qilganidan dalolat beradi. Ikkinchidan xabarning bittasini aynan (ya'ni ko'chirib), ikkinchisini o'zlashtirib bayon qilish bilan takrorning oldi olinadi.

